



**O‘zbekiston Respublikasi
Qishlok va Suv xo‘jaligi vazirligi
Samarkand qishloq xo‘jaligi instituti**

Iqtisodiyot va boshqaruv fakultyeti

**“Tasdiqlayman”
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakultyeti dekani,
dotsent ___ F.B.Axrоров
«___» _____ 2014 y**

**Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrası
5610100 – «Fermer xo‘jaligini boshqarish va yuritish» yo‘nalishi
bo‘yicha**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu:” Chorvachilikga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarda jadal
texnologiyada qoramol go‘shti ishlab chiqarish va uning samaradorligi”
(Tayloq tumani Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xujaligi misolida)**

Bajardi:

**5610100-“Fermer xo‘jaligini
boshqarish va yuritish ” yo‘na-
lishi 4 bosqich talabasi**

Xaydarov Jaxongir

Ilmiy raxbar: dotsent

E.S.SHaptakov

Ilmiy maslahatchi: dotsent

SH.Raxmonov

**Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
Qo‘yildi. Zootexniya, hayvonlar
genetikasi va urchitish kafedrası
mudiri, dotsent**

E.S. SHaptakov

“___” _____ 2014 y

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

Kirish.

O‘zbekistonda chorvachilik holati va taraqqiyot istiqbollari	3
1. Mavzuni nazariy asoslash va adabiyotlar sharhi.....	8
2. Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi	16
2.1 Xo‘jalik yer resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	16
2.2. Xo‘jalik mehnat resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	19
2.3.Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida moddiy-texnika bazasi	25
3. Jadal texnologiyada qoramol go‘shiti ishlab chiqarish va uning samaradorligi.	29
3.1.Go‘shtdor qoramolchilik texnologiyasi.....	29
3.2.Yosh qoramollarni go‘shit uchun o‘stirish texnologiyasi.....	41
3.3.Yosh qoramollarni go‘shit uchun boqishning iqtisodiy samaradorligi	49
4. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari	52
4.1 Fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning hozirgi holati va dinamikasi.....	52
4.2 Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari.....	59
5. Ekologik muammolar, xayot faoliyati va texnika xavfsizligi masalalari	62
Xulosa va takliflar	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	67

K I R I S H

O‘zbekistonda chorvachilik holati va taraqqiyot istiqbollari

Chorvachilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri bo‘lib, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 46,3 foizi uning ulushiga to‘g‘ri keladi.

Shuning uchun ham Respublika aholisining oziq-ovqat bilan muntazam ta‘minlab borishda qishloq xo‘jaligi hayvonlari, parrandalari, baliq va asalarilarni ko‘paytirish, Shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda Chorvachilik tarmoqlarida nasldorlik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, seleksiya-naslchilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va keng ko‘lamli seleksiya ishlarini yuritish muhim vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga katta e‘tibor byerilayotganligi, aholiga qo‘shimcha yyer maydonlari ajratilganligi, Shuningdek davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilganligi tufayli aholida Chorva bosh soni ko‘payishiga, buning natijasida ichki iste‘mol bozorini Chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishda, sezilarli natijalarga yerishishga imkon yaratildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida Chorva mollari sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish, syervis xizmatlari tarmog‘ini tashkil yetishga doir chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi natijasida Chorvachilikni rivojlantirishda ijobiy siljishlar qayd yetilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida barcha toifa xo‘jaliklarida qoramollar bosh soni 10607,0 ming boshga yyetkazilib, 2012 yilga nisbatan o‘shish darajasi 4,6 foizga, Shundan sigirlar bosh soni 4020,5 ming bosh yoki 2,2 foizga, qo‘y va echkilar bosh soni 17720,2 ming bosh yoki 3,5 foizga, otlar bosh soni 6583 ming bosh yoki 3,3 foizga, parrandalar bosh soni 52337,2 ming bosh yoki 10,2 foizga oshganligi kuzatilgan.

Yuqorida qayd yetilgan raqamlar asosida Shuni ta'kidlash lozimki, Chorva mollari sonini xo'jaliklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak o'tgan davr mobaynida qoramollar bosh soni barcha toifadagi xo'jaliklarda jami 10607,3 ming bosh (100%) ga yyetgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichni, fermer xo'jaliklari 539,9 ming boshni yoki 5,1% ni, dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) 9957,4 ming bosh yoki 93,8%ni, qishloq xo'jalik korxonalarida esa 109,8 ming bosh yoki 1,1 foizini tashkil yetgan. Shu jumladan, sigirlarni 4,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 94,5 foizi dehqon xo'jaliklarida (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan), 0,9 foizi esa qishloq xo'jalik korxonalarida urchitilmoqda.

Urchitilayotgan jami (100%) qo'y va echkilarning 83,3 foizi, otlarning 83,4 foizi, jami parrandalarning 63,4 foizi dehqon xo'jaliklarida (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) hisobiga to'g'ri kelgan. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklari faoliyatini dunyo tajribasiga asoslangan holda samarali faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

Shuningdek, o'tgan yilning Shu davriga nisbatan 115 ming tonna yoki 7,0 foiz ko'p tirik vaznda go'sht, 573,8 ming tonnaga yoki 7,8 foiz ko'p sut, tuxum ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 506 mln. donaga yoki 113,1 foizga ko'payib, bir tovuqdan olingan tuxum 16 donaga yoki 110,6 foizga oshganligi kuzatilgan, faqatgina qorako'l tyeri ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 56,3 ming donaga yoki 5,0 foizga kamayganligi qayd yetilgan. Jun ishlab chiqarish hajmi 1,4 ming tonnaga yoki 104,5 foizga oshgan. Asal ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan 2155,5 tonnaga yoki 144,1 foizga, baliq yyetishtirish esa 12270,9 tonnaga yoki 147,4 foizga oshgan.

Ishlab chiqarilayotgan Chorvachilik mahsulotlarini xo'jaliklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy mahsulot dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. Barcha toifadagi xo'jaliklarda ishlab chiqariladigan 7884733 kg (100 foiz) sutning 285589 kilogrammi yoki 3,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 7547203 kilogrammi yoki 95,7 foizi dehqon xo'jaliklarida, 51941 kilogrammi yoki 0,7 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga to'g'ri kelgan. Shunga mos ravishda jami ishlab chiqarilgan

go'shtning 2,8 foizi fermer xo'jaliklari, 95 foizi dehqon xo'jaliklari, 2,7 foizi qishloq xo'jalik korxonlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, tuxumning 11,4 foizi fermer xo'jaliklari, 54,9 foizi dehqon xo'jaliklari, 33,7 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga to'g'ri kelgan. Shuningdek qirqib olingan junning 6,9 foizi fermer xo'jaliklari, 86,8 foizi dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga), 6,3 foizi qishloq xo'jalik korxonlari, qorako'l tyerining 4,8 foizi fermer xo'jaliklari, 75,6 foizi dehqon xo'jaliklari (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga), 6,4 foizi qishloq xo'jalik korxonlariga, asalning esa 16,8 foizi fermer xo'jaliklari, 76,8 foizi dehqon xo'jaliklari, 6,4 foizi qishloq xo'jalik korxonlari tomonidan ishlab chiqarilgan. Shuningdek ovlangan baliqning 29,8 foizi fermer xo'jaliklari, 11,1 foizi dehqon xo'jaliklari, 59,0 foizi esa qishloq xo'jalik korxonlari tomonidan yetishtirib byerilgan. Olingan tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqariladigan mahsulotning (60-90 %) asosiy qismi dehqon (aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari bilan birga) xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri kelgan.

Mamlakat viloyatlarida qoramollarning bosh soni bo'yicha farq kuzatilgan. Aytaylik Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari xo'jaliklarida bir yarim million boshdan ziyod Buxoro, Andijon, Qoraqalpog'iston, Farg'ona, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida bir million boshga yaqin, Toshkent, Jizzax, Namangan viloyatlari yarim million boshdan ortiq hamda Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida yarim million boshdan kam qoramollar urchitilmoqda.

Sut ishlab chiqarish bo'yicha ham viloyatlar kesimida xuddi Shunday farq mavjud. Jami yetishtirilgan sutning asosiy qismi ya'ni: 12,7; 10,5; 9,7; 9,5 foizini tegishli Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona, Toshkent viloyatlari byergan bo'lsa, bu ko'rsatkich bo'yicha oraliq o'rinni, Andijon, Buxoro, Surxondaryo, Namangan va Jizzax viloyatlari (8,9; 8,5; 8,5; 6,3 va 5,4 %) hamda oxirgi o'rinni Navoiy, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi egallashgan (4,3; 3,2; va 3,0 foiz). 2013- ishlab chiqarish yili yakuni bo'yicha Mamlakatimizda jami 1,8 mln. tonnaga yaqin go'sht ishlab chiqarilgan, Shundan

1,0 mln. tonnadan ziyodini qoramol go'shti tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham sezilarli darajada farq kuzatilgan.

Joriy yilda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan dasturlar ijrosi bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi Chorva mollariga mavjud 2591 ta zoovyeterinariya punktlari orqali 9792,1 mln. so'mdan ortiq zoovyeterinariya syervis xizmatlari ko'rsatilgan.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi Chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida joriy yilda 1920 ming boshdan ortiq sigir va urg'ochi tanalar sun'iy urug'lantirilgan.

Sun'iy urug'lantirishni amalga oshirish maqsadida o'zimizda mahalliy sharoitda naslli buqalarning muzlatilgan urug'larini qadoqlash tashkil yetilgan bo'lib, joriy yilda joylarga 3671,2 ming dozadan ortiq naslli buqalarning urug'i yetkazib byerilgan.

Respublikamizda hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan 448 ta qoramolchilik naslchilik xo'jaliklarida bugungi kunda 8,7 ming bosh naslli mollar tayyorlanib auksionlarda sotish tashkil yetilgan. 2013 yil mobaynida xorijiy mamlakatlardan 8327 bosh naslli mollar olib kelinib, o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi 70,4 foizga ko'p. Ularning umumiy soni 34 ming 927 boshni tashkil qiladi.

Tahlil Shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarilayotgan Chorvachilik mahsulotlarining salmog'i inson organizmida normal fiziologik, biokimyoviy jarayonlar kechishi uchun iste'mol qilinishi lozim bo'lgan me'yor darajasidan ancha past.

Muammoni hal yetish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish kyerak. Respublika hududlarining, xo'jaliklarning yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda Chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirib, ularni ixtisoslashtirish jarayonlarini rivojlantirishga e'tibor byerish lozim. Chorvachilik fyermalarining zamonaviy talablarga javob byeradigan moddiy-

texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga alohida e'tibor byerish kyerak.A.Q.Qaxorov, A.Xushvaqtov (2014)

Mavzuni dolzarbligi: Hozirgi kunda go'sht ishlab chiqarish asosan qoramolchilikdan olinib,Respublikamizda yyetishtirilayotgan umumiy go'sht balansining 65 foizini tashkil yetmoqda.Lekin Shunga qaramasdan axoli jon boshiga yillik talab yetiladigan go'sht miyor darajasida emas,SHuning uchun Hozirgi kunda chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo`jaliklarida go'sht yetishtirish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuni maqsadi:Tayloq tumani "Chorvador Uroqov"fermer xo'jaligida jadal texnologiyada qoramol go'shti ishlab chiqarishning qulay xilini aniqlash va ishlab chiqarishga tegishli tavsiya byerish.

Tadqiqot vazifalari: tayloq tumanida chorvachilikka ixtisoslashgan "Chorvador Uroqov"fermer xo'jaligining sharoitini, chorva mollari bosh sonini,chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni va uni sotishni, ozuqa bazasini,shuningdek tajribadagi va nazorat guruhidagi yosh buqachalarni go'sht uchun jadal texnologiya asosida boqish,ularning so'yim ko`rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, xulosalar qilish va ishlab chiqarishga taklif byerish vazifalari qo`yilgan.

I. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Qoramollarning go'sht mahsuldorligi salmog'i va uning sifatiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki butun dunyo mamlakatlarida Shu jumladan O'zbekistonda ham qoramol go'shti asosan sutbop zotlardan olinadi.

Shuni ham aytish joizki, qora – ola zoti o'zining soni va sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Oxirgi yillarda ushbu zotni ayrim xo'jalik belgilarini takomillashtirish maqsadida golshtin zotidan keng foydalanilmoqda.

Ko'plab ilmiy-tadqiqotlarning natijalari L.S.Lunina (1991), SH.A.Akmalxonov (1993), Ashirov M. (1994), Nosirov U. (2001, 2007) Shuni ko'rsatadiki, qoramollarning mahsuldorlik xususiyatlariga ta'sir qiladigan omillardan asosiysi - bu ozuqa omilidir (59%).

Bundan tashqari naslchilik ishlarining samaradorligiga (22%) va texnologik jarayonlarni tashkil qilishga (19%) ham bog'liqdir. Ilg'or fan - texnologiya yutuqlari shuni ko'rsatadiki, 18-21 oylik so'qimlangan buqachalarning tirik vazni 500-550 kg, bir kunlik o'sishi 800-1200 g, ularning so'yim chiqimi esa 58-65 % gacha bo'ladi. Ammo bu ko'rsatkichlar bizda tegishli 200-300 kg, 600-700 g, 53-55 % ga tengdir. Demak, mahsuldorlik bo'yicha qoramollarning genetik salohiyatini 40-50 % idan foydalanilgan xolos.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha belgilangan qo'shimcha chora - tadbirlar, Chorvachilikda islohatlarni yanada chuqurlashtirish, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida hayvonlarning, shu jumladan qoramollarning mahsuldorlik bo'yicha genetik salohiyatini yuzaga chiqarishda, ular zotlarning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirishda, yuqori mahsuldor podalar yaratishda oziqlantirish omili, uning darajasi, to'la qiymatliligi, ozuqalar sifati asosiy o'rin egallaydi.

Chorvachilik rivojlangan mamlakatlarda mollar mahsuldorligini keskin oshirishda naslchilik ishlari namunali yo'lga qo'yilganligi, bu jarayonda zamonaviy seleksiya usullarini qo'llash bilan birga, mollarni to'la qiymatli

ozuqalar va omuxta emlar bilan yuqori me'yorda boqish o'z samarasini byerayotganligi ham bunga isbot bo'la oladi.

Ilmiy adabiyotlarda (U.Nosirov 2001, 2008) ta'kidlashicha, qora-ola zotli qoramollar nafaqat sut mahsuloti, balki go'sht mahsuldorligi bilan ham boshqa zotlardan ijobiy tomonga ajralib turadi. Shuning uchun ham uning tarqalish hududi va bosh soni yildan –yilga ko'paymoqda.

Birgina Rossiya fedyeratsiyasida 1985-1998 yillar davomida 28,4 dan 51,1 % gacha ko'paygan. Bir vaqtning o'zida simmental 31,2 % dan 18,4 % ga, qizil cho'l esa 14,2 dan 7,6 % ga kamaygan. Qora –ola zoti dunyo bo'yicha golshtin zoti bilan yaxshilangan. Ushbu zot bizning Respublikamizda ham o'zining soni jihatidan birinchi o'rinda turadi (4,0 million boshga yaqin).

Hayvonlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari ozuqa va asrash omiliga bog'liqligini evolyusion ta'limotning asoschisi Ch.Darvin (1877) ham o'z vaqtida ta'kidlab o'tgan.

U.Nosirov (1974, 2000), yozishicha qoramollarning sut mahsuldorligi 60-70 % va go'sht mahsuldorligi 60-62 % oziqlantirishga va texnologik omillarga bog'liq bo'ladi.

Bu fikrlardan ham ravshanki qoramollarning xo'jalik foydali belgilarini yuzaga chiqarishda oziqlantirish bosh omil hisoblanadi.

T.K.Gaziev, S.B.Chakalovlarning (1988) ma'lumoti bo'yicha qora –ola va shvits zotiga mansub yangi tug'ilgan buzoqlarni tirik vazni tegishlicha 30,7 va 30,4 kg bo'lgan, 18 oyligida esa shunga mos ravishda 409,6 va 411,5 kg ga yetgan.

Maydalanmagan go'sht og'irligi, so'yim og'irligi hamda so'yim chiqimi mutanosib tarzda: 112,0 va 220,0 kg, 226,7 va 236,4 kg hamda 56,0 va 57,6 foizni tashkil qilgan. Rentabillik darajasi 82,62 va 91,25 foizga teng bo'lgan. Izlanuvchilarning fikricha shvits zotidan foydalanish ham zootexnikaviy ham iqtisodiy jihatdan ham foydadan holi emas ekan.

G.A.Vodyanitskiy, I.A.Boykolar (1988) qoramol go'shti ishlab chiqarishni jadallashtirish maqsadida aholidan sotib olinayotgan yosh yerkak buzoqlarni, boshqa yoshga nisbatan 3 va 6 oyligida olishni tavsiya yetishgan.

Chunki 18 oylikdagi tirik vazni, soʻyimdanda oldingi tirik vazn, nimalanmagan goʻsht ogʻirligi, soʻyim ogʻirligi va soʻyim chiqimi katta yoshda sotib olingan buqachalardan 7-12% yuqori boʻlgan. Lekin, boʻrdoqichilik xoʻjaligini oʻzida qabul qilingan texnologiya asosida parvarishlangan tengqurlariga qaraganda kam koʻrsatkichlarga yerishishgan.

E.A.Bolgov va boshqalarning (2005) xulosalariga koʻra, qoramollar boqish usullaridan qatʻiy nazar, ularni tirik vaznini buqachalarning goʻsht mahsuldorligini va sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda eng asosiy omil boʻlib yuqori oziqlantirish darajasi va texnologik jarayon hisoblanadi.

Tadqiqotlar maʼlumotlarining koʻrsatishicha, qoramollarning tirik vazni va sigirlarning sut mahsuldorligi yuqori oziqlantirish darajasida, past oziqlantirish darajasidagi tengqurlaridan shunga mos ravishda 70-100 va 435-664 kg yuqori boʻlgan. Chorvachilik rivojlangan davlatlarda mollar mahsuldorligini keskin oshirishda naslchilik ishini zamonaviy usullarni qoʻllash bilan birga, toʻla qiymatli ozuqalar va emlar bilan yuqori meʼyorda boqish har tomonlama oʻz samarasini byermoqda.

Shuning uchun ham U.N.Nosirv, O.Cobirovlar (2008) kelajakda mamlakatimizda chorvachilik yoʻnalishidagi fermer xoʻjaliklarida, bir shartli molni yiliga 45 sentnyer ozuqa birligi hisobidan boqish yoʻlga qoʻyilishini ilmiy jihatdan asoslab byerishgan.

Ularning taʼkidlashicha, jami ozuqa birligiga (45 s) nisbatan 35-43 foizgacha konsentrat, 18 foizgacha dagʻal ozuqalar, 19-22 senaj va 20-25 foizgacha silos bilan oziqlantirish mollar mahsuldorligini keskin oshiradi.

L.P.Paraxov, N.B.Borobeva, T.P.Loginova, A.V.SHishkinlarning (2010) maʼlumoti boʻyicha Rossiyaning Nijegorod viloyatidagi naslchilik zavodlari va koʻpchilik naslchilik xoʻjaliklarida qora -ola zotli mollarni golshtin zoti bilan chatishtirishda yuqori mahsuldor podalar yaratilgan.

“Pushkinskoe” naslchilik zavodida II-boʻgʻin golshtin genotipli sigirlar I – laktatsiyasida oʻrtacha 8437 kg, III-boʻgʻindagilari 8337 kg, IV-boʻgʻindagilariga nisbatan sut sogʻimi 347 kilogrammga (4,3%) kamaygan.

III-bo'g'indagi sigirlar guruhida II-bo'g'indagilarga nisbatan 10000 kilogrammdan ortiq sut byeradigan rekordchi –sigirlar soni ikki baravarga kamaygan bo'lsa, IV-bo'g'indagi sigirlar guruhida esa rekordchi –sigirlar umuman bo'lmagan. Keyingi 10 yil mobaynida sigirlarning sut mahsuldorligi 3 barobarga oshgan. 5 yil mobaynida birinchi tuqqan sigirlarning sut sog'imi har yili o'rtacha 760 kilogrammdan ko'tarilib borgan.

Ushbu natijalarga yerishishda birinchi tuqqan sigirlarni syersut qilish tadbirlari, Kanadaning “Simeks Allaeks” kompaniyasining yuqori qiymatli buqalaridan foydalanish, boy ozuqa bazasi, ratsionlar va qo'shimcha premikslar retseptlarini takomillashtirish qo'l kelgan.

V.I.Selsov (2009) ning e'tirof yetishicha sigirlarni xo'jalikda foydalanish davomiyligi buyicha seleksiya qilish yaxshi natija byermaydi, Shuning uchun sut mahsuldorligi bo'yicha seleksiya qilish uzoq muddatli foydalanish bilan ijobiy korrelyasiyada bo'ladi.

R.N.Lyashuk, A.I.Shendakov, V.V.Sorokinlarning (2009) yozishlaricha qora-ola zotini golshtinlashtirish 62,5 foizga yetkazilib, so'ng “O'z ichida” urchitish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelgusida esa faqat oziqlantirish va saqlash sharoitlarini yaxshilash evaziga chatishtirishni davom yettirish mumkin.

N.V.Vorobeva, T.P.Loginova, L.L.Kovalning (2010) ta'kidlashlaricha sigirlarning tirik massasi ularning sut sog'imiga katta ta'sir ko'rsatadi. Golshtinlashtirilgan podalarda 490-500 kg tirik massa I-tuqqan sigirlar uchun normal hisoblanadi, yetuk yoshdagi sigir uchun esa 600 kg atrofida.

“Pushkinskoe” naslchilik zavodida I-laktatsiyadagi sigirlarning o'rtacha tirik massasi 495 kilogrammga, yetuk yoshdagilarniki 570 kilogrammga teng. Sutdorlik koeffitsienti I-tuqqan sigirlarda 1343-1726 kg, yetuk yoshdagilarida 1545-1773 kilogramm. Ayrim rekordchi sigirlarniki 2000-2244 kilogrammgacha ko'tarilgan.

A.V.Egiazaryan, P.N.Proxorenko, E.I.Saksalarning (2009) ma'lumotlariga ko'ra qora-ola zotining Leningrad tipi naslchilik zavodlari, davlat naslchilik reproduktorlarida golshtin zotining avlodlari bo'yicha tekshirilgan yetuk buqalardan foydalanishni davom yettirish kyerak.

Mahsuldorlikning yuqori genetik potensialiga Leningrad viloyatidagi naslchilik zavodlari yerishgan. 10000 kilogrammdan yuqori sut sog'ib olingan. Tayna 181 laqabli sigir I –laktatsiyasida 305 kun davrida 18406 kilogramm rekord darajasidagi sog'imni namoyish yetgan. Yangi syermahsul tipdagi sigirlar tirik massasi 605 kg, yag'rin balandligi 145 sm, ko'krak chuqurligi 73 sm ni tashkil yetadi.

Sigirlarga xos bo'lgan xususiyatlar mashina sog'imiga yaxshi moslashganligi, sut byerish jadalligi (2,12 kg/min), sutdorlik tipi va sutdorlik koeffitsienti (1543 kilogramm) namoyon bo'lgan. Sigirlarning sut sog'imi "Leninskiy put" nomli naslchilik zavodida 1996 yili 2552 kilogrammdan 1999 yili 7210 va 2002 yili 3360 kilogrammga ko'tarilgan. Har yili fenotipik samaradorlik 968 kilogrammga oshgan (P.Proxorenko, D.Mixaylova, 2000).

U.Kuchchiev (2006) ma'lumotlariga ko'ra golshtinlashtirilgan sigirlarning yil fasllari bo'yicha tug'ishi ularning sut mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni kuz - qish faslida tuqqan sigirlar ko'proq sut byergan, ularda syervis davri 60-90 kunni tashkil yetgan.

Yu.Kotlyarov, N.Klunduk, O.Yankinalarning (2005) tadqiqotlarida qora-ola zotli sigirlarni golshtin zotli buqalar bilan chatishtirishdan olingan sigirlar zotdorligining oshishi bilan sut mahsuldorligi ham oshib borgan. Uning miqdori I-bug'in chatishma sigirlarda qora -ola zotli tengqurlarinikidan 348 kg, II- bo'g'inda esa 627 kg yuqori bo'lgan.

M.Kubsevning (2007) ma'lumotiga ko'ra Novosibirsk davlat agrar univyersitetining "Tulskoe" o'quv -tajriba xo'jaligida buzoq va tanalar jadal parvarish qilinganda 18 oylikida 400 kilogramm massasida birinchi qochirishga qo'yilgan. G'unajinlarni tug'ishga tayyorlash va birinchi tuqqan sigirlarni syersut qilish texnologiyasida ularning sut sog'imi 6000-6500 kilogrammga yetgan.

S.Karamaev, E.Kitaev, N.Sobolevalarning (2010) ta'kidlashlaricha, chatishma mollarda golshtin qonining oshishi bilan sut sog'imi va umumiy oqsillar salmog'i oshib boradi, sut tarkibidagi yog' miqdori esa kamayadi. Shu boisdan sutchilik fyermalari va komplekslarida golshtinlashtirilgan mollardan samarali

foydalanishni oshirishda 62,5-75,0 % golshtin genotipli mollarni urchitishni tavsiya yetganlar.

M.Dosmuhamedovani (2008) tajribalari shundan dalolat byeradiki, qora-ola zotli sigirlarni Isroil golshtin buqalari bilan chatishtirishdan olingan II va III-bo'g'in (7/8) dagilarning issiqqa chidamlilik indeksida (64,0-64,5) o'zgarish kuzatilmagan.

Demak, olingan avlodlarda Isroil golshtini qonining ko'tarilishi ularning issiqqa chidamlilik xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Jumladan, laktatsiya davridagi sut sog'imi III- guruhda (1/4 qonli golshtin sigirlarda) 3892 kg bo'lsa, II-guruhdagi 3/8-1/2 qonli golshtin sigirlarda) ko'tarilib, 4313 kilogrammga, I-guruhda (3/4-7/8 qonlilarniki) 4590 kilogrammga yetgan.

V.Burxonova, E.Shaptakov va L.Ismoilovalarning (2009) ma'lumotlariga ko'ra qora-ola va golshtin zotli I va II-bo'g'in chatishma sigirlari turli miqdorda sut byergan. Qora-ola zotli sigirlari 2897,1 kg sut byergan bo'lsa, I-bo'g'in sigirlarniki 300,5 kg yoki 10,4 %, II-bo'g'in sigirlarniki 642,5 kg yoki 22,2 % ga ko'p.

Qora-ola zotini golshtinlashtirish ishlari nafaqat sut mahsuldorligini oshirishga, shuning bilan birgalikda sut tipidagi xajmli va to'g'ri shakldagi elinli va ozuqalardan samarali foydalanadigan sigirlarni olishga qaratiladi.

“Pushkinskoe” naslchilik zavodida olingan golshtin genotipli sigirlar sut tipidagi ekstyeryer sifatleri bo'yicha qora-ola zotidan ustunlik qiladi. “Simeks Allayens” kompaniyasi (Kanada) buqalaridan olingan golshtinlashtirilgan yetuk yoshdagi sigirlar yag'rin balandligi 139 sm, dumg'aza balandligi -141, ko'krak chuqurligi -76, ko'krak kengligi -51, tos cho'qqisi kengligi -54, o'tirish suyak cho'qqisi kengligi -23, tananing qiya uzunligi -179 va pocha aylanasi -19,6 smni tashkil yetgan.

Naslchilik zavodi sharoitida golshtinlashtirilgan sigirlar garmonik tana tuzilishi, balandlik tana o'lchovlari bilan harakterlanadi. Tanasi chuqur va chuziqroq, elini vannasimon shaklda.

Golshtinlashgan sigirlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlariga yaxshilovchi buqalar genotipining ta'siri qator olimlar (Sh.Trufanov, 2005; Yu.A.Ivanov, 2005; P.Proxorenko, 2005; L.Praxov, O.Basanov, 2004; V.Fisinin, 2006; A.V.Egiazaryan, P.N.Proxorenko, E.I.Saksa, 2009; R.N.Lyashuk, A.I.Shendakov, V.V.Sarokin, 2009 va qator boshqalar) tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Ularning ta'kidlashlaricha sut yo'nalishidagi podalarning genetik yaxshilanishi 85-90 % da buqalarning nasldorlik qiymati bilan belgilanadi.

V.G.Saropkin, Yu.A.Svyetova, S.N.Ivanovlarning (2004) yozishlaricha turli qora –ola zot tiplari golshtin zoti bilan chatishtirilganda buqalar xususiyati ular qizlarining texnologik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Elinining kosasimon shakli 8-45 % ga ko'payib, sut byerish tezligi 0,08-0,56 kg/daqqa oshgan. Umuman olganda chatishma sigirlar elining uzunligi, eni va chuqurligi ortib, elin surg'ichlarini biroz qisqarishini kuzatganlar.

N.N.Sulima, N.V.Molchanova, G.S.Devyatkinlarning (2004) ma'lumotlariga qaraganda syermahsul podalar yaratishda birinchi tug'im sigirlar ekstyeryerini baholash alohida o'rin tutadi.

Moskva viloyatining "Dubrovitsa" tajriba xo'jaligida keyingi 10 yilda sigirlarda golshtin qoni 90 foizga yetgan. I-tug'im sigirlarning ekstyeryer bahosi 79,3 ball va sut belgilari 83,9 ballga yetgan. 7000 kilogrammdan ko'p sut byergan sigirlar ekstyeryer bahosi qolgan sigirlarga nisbatan yuqori bo'lgan.

Podada I-tug'im sigirlarni konstitutsiyasini mustahkamligi, ekstyeryerining rivojlanishi, oyoqlari va elin ko'rsatkichlariga qarab puchak qilish poda sifatiga ijobiy ta'sir yetgan.

O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra Ues Ideal 933122, Montvik Chifteyn 95679, Reflekshn Sovyering 198998, Siling Traydjun Rokit 252893 buka tizimlariga xos bo'lgan sigirlarning nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlari yaxshilangan (M.I.Ashirov, 1994).

E.Gulyaev, M.Gulyaevlar (2009) tajribalar asosida qilgan xulosalarida podadagi agressiv hulqli sigirlar yuqori mahsuldorlikka ega, laktatsiya mobaynida va 100 kg tirik massa hisobiga bosiq hulqli sigirlarga nisbatan ko'p sut byeradi.

Buzoq byerish xususiyati bo'yicha bosiq hulqli sigirlar 100 foizli natija byermaydi. Podada buzoqning o'lik tug'ilishi turli agressivlik darajadagi sigirlarni birgalikda saqlash sabablari bilan bog'liq.

L.N.Bakieva, E.A.Kitaevlarning (2009) ma'lumotiga ko'ra zotidan qat'iy nazar sigirlardan xo'jalikda foydalanish muddatlari o'zgarishi va yuqori sut mahsuldorligi ularning semizlik darajasi 3,5 -4,0 bo'lganida kuzatilgan. Ya'ni tanada yetarli to'yimli moddalarning bo'lishi yuqori sut mahsuldorligi va uzoq foydalanish imkoniyatini byeradi.

O'zbekistonda qora –ola zotli I va II–bo'g'in golshtin genotipli novvoslar go'sht mahsuldorligining shakllanishini B.Tashpulatov (2010), B.Tashpo'latov, E.S.Shaptakov, A.K.Kaharovlar (2009) Surxondaryo viloyatining fermer xo'jaliklar sharoitida maxsus tajribalarda o'rganishgan. Tajriba mollar guruhlarida yuqori golishtin genotipli novvoslar, o'sish va rivojlanishi, so'yim massasi va chiqimi, go'shtining sifati bo'yicha ustunlik qilgan.

2. TAYLOQ TUMANI FERMER XO‘JALIKLARIDA RESURLAR SALOHIYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

2.1 Xo‘jalik yer resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari

Yer resurslari, boshqa ishlab chiqarish vositalardan tubdan farq qilgani holda, asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

1. Yer tabiat mahsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini o‘zgartiradi, bu uning mehnat predmyeti ekanligi. O‘simliklarning rivojlanishi va o‘shiga ta’sir ko‘rsatishi uning mehnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chiqarish vositasi ekanligini bildiradi.

2. Yerning xududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Yer boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi insonning xoxishi bilan ko‘payib kolavyermaydi.

3. Yerni almashtirish mumkin emasligi. Yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bulmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4. Yerni siljitib bulmasligi. Yer qayerda joylashgan bo‘lsa, usha yerda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga ko‘chirish mumkin emas.

5. Yer uchastkalarining sifati bo‘yicha turli tumanligi. Yer uchastkalariga bir xil miqdorda mablag‘ va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bo‘lishi mumkin.

6. Boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, o‘zining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chiqadi.

Yer umrbodlik ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish qilinsa, ko‘p hosil byeradi. Yerning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya’ni parvarish qilinayotgan o‘simlikni zarur ozuqa moddalari

bilan qondirish va hosil yetishtirish xususiyatiga bog‘liq. Iqtisodchilar tuproq unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy;
2. Sun‘iy;
3. Iqtisodiy.

Tuproqning unumdorligi, quyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta‘sirida uzoq davom yetgan tuproq hosil bulishi jarayonining natijasidir. Tuproqning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini harakterlaydi, u dehqonchilik uchun hal qiluvchi ahamyatga ega, iqtisodiy unumdorlikning asosi hisoblanadi. U insonning mehnat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda harakat qiladi. Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun‘iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida bir xil emas.

O‘zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil yetadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O‘zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko‘rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bulinadi:

1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar;
2. Aholi punktlarining yerlari;
3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
4. Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar;
5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
6. O‘rmon fondi yerlari;
7. Suv fondi yerlari;
8. Davlat zaxira yerlari.

Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi xo‘jaliklarga byerkitilgan yer resurslardan foydalanish samaradorligi sifatida ham, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer va uning alohida

turlari bo'yicha foydalanishning samaradorligi sifatida ham harakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Har bir qishloq xo'jalik korxonasini o'rganishda avvalo yer resurslari o'rganiladi. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida yer resurslari o'zgarishini 2.1.1-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

2.1.1-jadval

Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida yer resurslari o'zgarishi (maydon ga)*

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2013 yilni 2012yilga nisbatan o'zgarish	
				+/-	%
1.	Jami yer maydoni	46950	46950	0	100,0
2.	Shundan xaydaladigan yerlar	27520	27786	266	100,9
3.	Sug'oriladigan yerlar	27520	27786	266	100,9
4.	Yaylov	1556	1555	-1	99,9
5.	Ko'p yillik daraxtlar	840	846	6	100,7
6.	O'rmon yerlari	303	300	-3	99,0
7.	Suv xavzalari	4235	4402	167	103,9
8	Boshqa yerlar	12296	12320	24	100,2

**Manba: Tayloq tumani statistik ma'lumotlari 2011-2012 yillar;*

2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Tayloq tuman fermer xo'jaliklarida jami yer maydoni 2012 yilda 46950 gektarni tashkil yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2013 yilda ham o'zgarmagan, haydaladigan yer maydonlari 2012 yilda 27520 ga ni tashkil yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2013 yilda 27786 ga ni tashkil yetgan, ya'ni 2012 yilga nisbatan 266 ga yoki 0,9% ga oshgan.

2.2. Xo‘jalik mehnat resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari

Mehnat resurslari mamlakat ahamiyatining o‘z ruhiy, fidokorlik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko‘rsatishga qodir bo‘lgan mehnatga layoqatli qismidir. «Bu tarifdan shu narsa kelib chiqadiki, mehnat resurslari iqtisodiyotda mehnat bilan band, band bo‘lmasa ham mehnat qilishlari mumkin bo‘lgan kishilarni ham qamrab oladi». Mehnat resurslarini to‘ldirib turish mamlakat aholisi sonining o‘sishi natijasida ro‘y beradi. Shu o‘rinda O‘zbekiston aholisi sonining yildan-yilga o‘sib borayotganligini qayd yetish muhimdir. Mazkur o‘shning asosiy omillaridan biri sifatida tug‘ilish darajasi hisoblanadi.

Mamlakatning mehnat resurslari deganda mehnatga layoqatli yoshda bo‘lgan (O‘zbekiston Respublikasida erkaklar uchun 16 yoshdan 59 yoshgacha, ayollar uchun 16 yoshdan 54 yoshgacha) aholi, shuningdek iqtisodda band mehnatga layoqatli yoshda bo‘lmagan (o‘smirlar va mehnatga layoqatli yoshdan yuqori yoshdagilar) shaxslar tushuniladi. Bundan ishlamayotgan I, II guruh nogironlari, imtiyozli nafaqa oluvchilar istisno qilinadi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi) - aholining tovarlarga va xizmatlar ko‘rsatishda ishchi kuchiga talabni ta‘minlovchi qismi tushuniladi. Iqtisodiy faol aholi ish bilan bandlar va ishsizlarni qamrab oladi.

Ish bilan bandlar - ko‘rib chiqilayotgan davrda to‘la yoki to‘liqsiz ish kunida haq olib mehnat qilayotganlar yoki vaqtincha ish bilan band bo‘lmagan (kasalligi, kasallarni parvarish qilishi, ta‘tildaligi va boshqa sabablarga ko‘ra) shaxslardir.

Ishsizlar - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, “O‘n olti yoshdan boshlab to‘ pensiya bilan ta‘minlanish huquqini olishgacha bo‘lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo‘lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida bandlikka ko‘maklashish markazida ro‘yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash yoki qayta tayyorlashdan o‘tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxs ishsiz deb e‘tirof yetiladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31 yanvardagi 42-son // “Aholining ish bilan bandligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Qaroriga muvofiq mamlakatimizda Halqaro Mehnat tashkiloti tavsiya va standartlari asosida mehnat resurslari shakllanishi va undan foydalanish samaradorligi belgilab qo‘yilgan. Mehnat resurslarini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

Mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi - ya’ni amaldagi qonunchilikda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yosh chegaralari oralig‘idagi shaxslar va II guruh ishlamayotgan nogironlardan va ishlamayotgan, yoshi bo‘yicha imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan fuqarolardan iboratdir. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda mehnat yoshining quyi chegarasi 16 yosh deb hisoblanadi. Yuqori chegarasi yosh bo‘yicha pensiya olish huquqi bilan belgilangan va erkaklar uchun 60 yoshni, ayollar uchun 55 yoshni tashkil yetadi.

Mehnat yoshidan o‘tgan ishlayotgan shaxslar va ishlayotgan o‘smirlar mehnat yoshiga yetmagan shaxslar.

Iqtisodiy faol adoli (ish kuchi) - bu aholining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun o‘z ishchi kuchini taklif yetishni ta’minlaydigan qismi. Iqtisodiy faol aholi soni ish bilan bandlarni va ishga joylashishga muxtoj shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Ish bilan bandlar:

a) pul bilan to‘lanadigan yoki natura holidagi haq evaziga yollanib, shuningdek, o‘z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishdan qat’iy nazar, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun yollanmasdan xaftasiga kamida 2 soat mobaynida ish bajarganlar;

b) kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turish uchun; yillik mehnat ta’tili yoki dam olish kunlarida; o‘z ish joyidan tashqarida ta’lim olganligi uchun; ma’muriyat tashabbusi bilan ta’minoti saqlab qolingan yoki saqlanmagan holda mehnat ta’tilida bo‘lgan va boshqa shunga o‘xshash sabablar bilan vaqtincha ishda bo‘lmaganlar;

v) oilaviy korxonada haq olmasdan ish bajargan shaxslar.

Ish bilan bandlik faqat korxonada ishlash bilangina cheklanib qolmaydi. Bozor konsepsiyasiga, halqaro standartlar hamda O'zbekiston Respublikasining „Aholining ish bilan bandligi to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuniga muvofiq ish bilan bandlik - fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir. Bunda har bir odam o'z mehnat qobiliyatlarini tasarruf yetish huquqi, ishlash yoki ishlamaslik huquqi, jinsi, millati va qandaydir boshqa belgilaridan qat'iy nazar, doimiy, qisman, vaqtinchalik mehnat faoliyatini, shu jumladan haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan mehnat faoliyatini ham amalga oshirish huquqiga ega. Mehnatga majburlashga yo'l qo'yilmaydi (qonunlarda maxsus belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno). Ixtiyoriy ravishda ishlamaslik javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi.

Yollanib ishlaydiganlar ham, yollanmasdan ishlaydiganlar ham, bu ish doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy, tasodifiy yoki bir martalik bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotda ish bilan band, deb hisoblanadi.

Yollanib ishlaydiganlar - mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonalar (tashkilot, muassasa) rahbari yoki alohida shaxs bilan pul hamda yoki natura holida haq oladigan mehnat faoliyati shartlari haqida yozma mehnat shartnomasi, kontrakt yoki og'zaki bitim tuzgan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Yollanmasdan ishlaydiganlar:

- 1) individual asosda, doimiy yollanma xodimlardan foydalanmasdan mustaqil ishlaydigan shaxslarni;
- 2) ish byeruvchilarni, Shu jumladan fermer va dehqon xo'jaliklari boshliqlarini;
- 3) oilaviy korxonalarining haq olmaydigan xodimlarini;
- 4) jamoa mulkdorlar (koopierativlar, shirkatlar kabi) a'zolarini birlashtiradi.

Iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar orasida aholiga daromadlarga ega bo'lgan imkonini beradigan va ish bilan bandlikni qo'llab-quvvatlashda hamda ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydigan norasmiy sektorda ishlayotganlar alohida o'rin tutadi. Norasmiy sektor mustaqil yuridik maqomga ega

bo‘lmagan ishlab chiqarish birliklari (uy - xo‘jaliklari yoki korporativ bo‘lmagan korxonalar) deb hisoblamoq kerak.

Norasmiy sektorda band bo‘lganlarga muayyan vaqt mobaynida norasmiy sektorning kamida bittasida ish bilan band bo‘lgan barcha shaxslar kiradi. Ko‘chada savdo qilish, aholiga pulli xizmatlar ko‘rsatish (kiyim tikish, uni ta‘mirlash va hokazolar), shuningdek, individual tadbirkorlik va kasblarning boshqa turlari shular jumlasidandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish bilan band bo‘lgan shaxslar ham ish bilan ta‘minlangan aholi toifasiga kiritilib, ular pensiya bilan ta‘minlanish huquqiga ega bo‘ldilar.

Ushbu toifaga kiritishning asosiy mezonlari quyidagilar:

- ishning yoki daromad keltiradigan ish bilan bandlikning butunlay yo‘qligi;
- bandlikka ko‘maklashish markazlarida ro‘yxatdan o‘tish yo‘li bilan ham, haq to‘lanadigan ishni topish uchun aniq harakatlarni mustaqil amalga oshirish ham faol ish izlash (masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish beruvchilarga murojaat qilish, e‘lonlar berish, o‘z ishini tashkil etish uchun uskunalar, inventarlar, mehnat vositalari va qurollari, moliyaviy resurslar izlash va hokazo);

- ishga kirishishga tayyor bo‘lish, ya’ni yollanib ishlashga yoki o‘z korxonasida ish boshlashga tayyor bo‘lish.

Ushbu mezonlarni bir vaqtda qo‘llanish ishga joylashishga haqiqatdan ham muxtoj bo‘lgan ishlamayotgan aholini ixtiyoriy sabablarga ko‘ra yoki iqtisodiy faol bo‘lmaganligi sababli ishga joylashishga muxtoj bo‘lmagan shaxslardan farqlash imkonini beradi.

Yuqoridagi uchta asosiy mezonlarga muvofiq:

Ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muhtoj aholi - amaldagi qonunlarga muvofiq ishsizlar sifatida rasman ro‘yxatdan o‘tgan (mehnat organlari bandlikka ko‘maklashish markazlari tashkil yetadigan, haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ish bilan band bo‘lgan davrni ham ko‘shganda), shuningdek, mehnatga

qobiliyatli yoshda bo'lib, vaqtincha ish bilan band bo'lmagan, haq to'lanadigan ishi yoki daromad keltiradigan mashg'uloti bo'lmagan (yoki xaftasiga ikki soatdan kam vaqt mobaynida haq to'lanadigan), yo mehnat organlari yordamida, yoki mustaqil ravishda faol ish izlayotgan va o'zlariga ish taklif etilishi bilanoq unga kirishishga tayyor bo'lgan shaxslardir.

Iqtisodiy faol aholi - ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatli aholidir. Uning jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, o'quv yurtlarining (shu jumladan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, kurslar, shuningdek, doktorantura) tinglovchilari va kursantlari;

- uy xo'jaligini yuritishda, bolalarni, bemor qarindoshlarini parvarish qilishda band bo'lganlar va agar daromad keltiradigan ish taklif qilinsa, shu ishga kirishish imkoniga ega bo'lmagan boshqa shaxslar;

- ishlashni istamayotgan, ish bilan ixtiyoriy ravishda band bo'lmagan shaxslar shuningdek, ishlashni istaydigan, lekin ishga joylashish yoki o'zini mustaqil daromad bilan ta'minlash uchun hech qanday harakat qilmaydigan shaxslar.

Mehnat resurslarining miqdori. Bu miqdor mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi soni bilan mehnat yoshidan kichik va katta bo'lib, ishlayotgan shaxslar sonining yig'indisi sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{MR = MYOM + IO'P,}$$

bunda: MR - mehnat resurslari;

MYOM - mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi;

IO'P -ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar.

MYOM soni mehnat yoshidagi aholi sonidan (16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar sonidan) ikkala jinsga mansub mehnat yoshidagi ishlamayotgan 1 va 2 guruh nogironlari hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan ishlamayotgan pensionerlar sonini chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{MYOM = E_{(16-60)} + A_{(16-55)} - \mathbf{Nog},}$$

bunda: $E_{(16 - 60)}$ — 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar;

$A_{(16 - 55)}$ - 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar;

Nog - mehnat yoshida bo‘lib, ishlamayotgan 1 va 2 guruh nogironlari (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar) hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya olayotgan ishlamaydigan pensionerlar.

Iqtisodiy faol aholi soni. Ushbu aholi soni quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{IF = IB + II,}$$

bunda, IF - iqtisodiy faol aholi qismi;

IB - ish bilan bandlar;

II - ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muxtoj shaxslar.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlarni aniqlash. Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo‘lganlar jumlasiga rasmiy statistikada hisobga olinmagan, doimiy, vaqtincha, bir martali va mavsumiy ishlarni yollanib bajaradigan, shu jumladan mazkur ishlarni amalga oshirish uchun respublikadan tashqariga chiqib ketadigan shaxslar, o‘z biznesini yuritadigan, sheriklar bilan yollanmasdan ishlayotgan shaxslar, taqiqlanmagan, lekin ro‘yxatga olinmagan faoliyatdan ish haqi yoki daromad topadigan shaxslar (masalan, chorva mol boqish va yetishtirish bilan band bo‘lganlar, dehqon bozorlari va chakana bozorda haridorlarga va savdo qiluvchilarga xizmat ko‘rsatadigan, statsionar bo‘lmagan savdo joylarida savdo bilan band bo‘lgan, xususiy tarzda odam tashish bilan va faoliyatning boshqa turlari bilan band bo‘lgan shaxslar) kiradi.

2.2.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida aholi tarkibi 2011 yilda 108200 kishini tashkil yetgan bu ko‘rsatkich 2012 yilda 109750 kishini ya’ni 2011 yilga nisbatan 1,4 % ga oshgan jami aholiga nisbatan xotin qizlar 2011 yilda 54032 kishini, 2012 yilda 55310 kishini tashkil yetgan. Xo‘jalikda band aholi 2011 yilda 35075 kishini tashkil yetgan bo‘lsa, 2012 yilda 35231 kishini tashkil yetgan, 2011 yilga nisbatan 0,4 % ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

2.2.1-jadval

Tayloq tumani mehnat resurslarining demografik holati

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2012 yil	2013 yil	2013 yilda 2012yilga nisbatan o'zgarish	
					+/-	%
1.	Aholi soni	Kishi	108200	109750	150	101,4
	sh. j.: xotin-qizlar	Kishi	54032	55310	1278	102,3
2.	Xo'jalik a'zolari	Kishi	36065	36070	5	100,01
	sh.j. xotin-qizlar	Kishi	18078	18096	18	100,09
3.	Xo'jalik a'zolaridan ishlayotganlari	Kishi	35075	35231	156	100,4
	sh.j. xotin-qizlar	Kishi	18065	18096	31	100,1
4.	Mehnatga qobiliyatli yoshdagilardan kattalar	Kishi	39601	40168	567	101,4
5.	Xo'jalikda yashab boshqa joyda ishlayotganlar	Kishi	6708	6805	97	101,4

**Manba: Tayloq tumani statistik ma'lumotlari 2012-2013 yillar ;*

2.3. Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida moddiy- texnika bazasi

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi xalq xo'jaliginiig boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol uynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi hap xil bo'lib, mahsulot birligi ychun har xil miqdorda harajat sarflanadi. Bu esa har xil

unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi xududiy haraktyerga ega bo'lib, har bir hududda tuproq - iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir yetadi. Ishlab chiqarish mavsumiy bo'lishi zaxira urug'lik, ozuqa, yo'qlgi moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy yetgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarflar qilishni taqozo yetadi, shuningdek, har qanday ishlab chiqarish kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishini taqozo yetadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok yetib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

1. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar va boshqalar).

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Har bir qishloq xo‘jalik korxonasi bilan ta‘minlanganligi ishlab chiqarishning to‘g‘ri va soz olib borilishi garovidir. Shu bois, biz ham tadqiqotimiz ob‘ekti bo‘lgan Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida moddiy-texnika resurslari o‘zgarishini 2.3.1-jadval ma‘lumotlari asosida ko‘rib chiqamiz.

2.3.1-jadval

Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida asosiy fondlar qiymatining o‘zgarishi

T/r	Ko‘rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2013 yilda 2012 yilga nisbatan o‘zgarishi	
		Qiymati, mln so‘m	Salmog‘i, %	Qiymati, mln so‘m	Salmog‘i, %	+/-	%
1.	Bino	2735,2	32,6	2958,4	30,7	223,2	108,2
2.	Inshoot	456,7	5,4	521,3	5,4	64,6	114,1
3.	Uzatish moslamalari	146,9	1,7	174,3	1,8	27,4	118,7
4.	Mashina va uskunalar	2115,1	25,2	3001,6	31,1	886,5	141,9
5.	Mebel va ofis jihozlari	28,6	0,3	31,5	0,3	2,9	110,1
6.	Kompyutyer va hisoblash texnikasi	8,2	0,1	12,4	0,1	4,2	151,2
7.	Transport vositalari	816,6	9,7	836,5	8,7	19,9	102,4
8.	Mahsuldor hayvonlar	27,5	0,3	31,1	0,3	3,6	113,1
9.	Ko‘p yillik o‘simliklar	1854,7	22,1	1867,5	19,3	12,8	100,7
10.	Boshqa asosiy vositalar	211,3	2,5	217,3	2,3	6,0	102,8
	Jami	8400,8	100,0	9651,9	100,0	1251,1	114,9

*Manba: Tayloq tumani statistik ma‘lumotlari 2012-2013 yillar ;

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Tayloq tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yilda jami asosiy fondlardan 2012 yilga nisbatan binolar 8,2% ga, inshootlar 14,1% ga, uzatish moslamalari 18,7% ga va boshqa asosiy fondlar ham o'z navbatida 2,8% ga oshgan. Tumanda jami asosiy fondlar 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 1251,1 mln so'mga yoki 14,9% ga oshgan.

3. JADAL TEXNOLOGIYADA QORAMOL GO'SHTI ISHLAB CHIQRISH VA UNING SAMARADORLIGI

3.1.Go'shtdor qoramolchilik texnologiyasi

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qoramol go'shtining 98-99 foizi sut va qo'shmahsuldor yo'nalishdagi zotlar va ularning chatishma avlodlaridan olinmoqda. Faqat 1-2 foizigina go'shtdor qoramol zotlari va ularning chatishma avlodlariga to'g'ri keladi.

Zamonaviy go'sht ishlab chiqarish yo'nalishida quyidagi tizim texnologiyalar qo'llaniladi:

- birinchisi, maxsus ixtisoslashgan go'shtchilik xo'jaliklari yoki go'shtchilik komplekslari buzoqlarni 20 kunligidan boshlab to 13 oyligiga qadar go'shtga jadal parvarishlash va bo'rdoqilash texnologiyasi qo'llaniladi, 400-420 kilogrammga va yuqori semizlik darajasiga yetkaziladi;

- ikkinchisi, go'sht yetishtirishga mo'ljallangan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda korxonalar o'rtacha me'yorda boqilgan 8-10 oylikdagi 150-180 kilogrammli yosh mollar boshqa xo'jaliklardan sotib olinadi. Ular, 280-300 kg vaznga qadar boqiladi va so'ngra 90-100 kun mobaynida bo'rdoqilanib, 380-400 kilogramm vaznga va yuqori semizlik darajasiga yetkazilib go'shtga topshiriladi;

- uchinchisi, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida bo'rdoqilash. So'yish konditsiyasiga (tirik vazni va semizligi bo'yicha) yetmagan yosh va yetuk yoshdagi mollar paxta shroti, sheluxasi, kepak, omixta em, makkajo'xori yormasi, pichan, somon va xo'jalik chiqindilari bilan jadal bo'rdoqilanadi. Yaylov sharoitida semirtirish texnologiyasi ham qo'llaniladi.

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda qishloq xo'jalik korxonalaridagi qoramol zotlari va ularning chatishma avlodlari maxsus go'sht yetishtirish texnologiyalarida parvarishlashda yuqori semizlikga va 380-450

kilogramm vaznga yetadi. So'yim vazni 200-240 kilogramm va so'yim chiqimi 53-55 foizni tashkil qiladi.

Ta'kidlash joizki yosh mollarni go'shtga parvarishlash texnologiyasining birinchi tizimi eng maqbul hisoblanadi. Mollarning go'sht mahsuldorlik genetik potensialidan samarali foydalaniladi.

Yerkak buzoq va buqachalarni go'shtga boqish texnologiyasi

Ushbu texnologiyada go'sht ishlab chiqarishning to'liq sikli amalga oshiriladi. Ya'ni erkak buzoqlar 20 kunligidan boshlab sotib olinib, go'shtga boqish texnologiyasida 14-18 oylikiga 400-420 kg vazni qadar boqiladi. Sifatli go'sht yetishtiriladi hamda ozuqalardan samarali foydalanishga erishiladi.

Mavjud texnologiya xo'jaliklarni ixtisoslashtirish (sut hamda go'sht yo'nalishida) asosida joriy etiladi. Go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan xo'jaliklar yoki komplekslar sut yo'nalishidagi xo'jaliklardan 20 kunlik sog'lom erkak buzoqlarni (kelishilgan narxlarda) sotib oladi. Ushbu xo'jalik yoki komplekslarning bir yula sig'im hajmi 1000-10000 bosh bo'lishi samarali hisoblanadi. Tuman miqyosida tashkil etilgan go'shtchilik xo'jaliklari shu tumandagi dehqon va fermer xo'jaliklaridan, viloyat miqyosida tashkil etilgan go'shtchilik komplekslari esa viloyat miqyosidagi sut yo'nalishidagi xo'jaliklardan buzoq sotib oladi.

Respublikada turli kategoriyadagi xo'jaliklarning hozirgi tizimida tumanlar miqyosidagi 1000 boshga mo'ljallangan go'shtchilik xo'jaliklarini shakllantirish maqbul. Xo'jalik texnologiyasida ishlab chiqarish guruhlarini ritmik to'lg'izib borishda sutchilik xo'jaliklaridan (aholi, dehqon, fermer, q/x korxonalarini) buzoq sotib olish potok-sikl grafigida bajariladi. Unda xo'jaliklardagi sigir va g'unajinlarni yil mobaynida tug'ish mavsumiyliigi ham e'tiborga olinadi.

Yosh mollarni go'shtga parvarishlash va bo'rdoqilash texnologiyasining asosiy parametrlari quyidagi jadvalda keltrildi (3.1.1- jadval).

3.1.1-jadval

**Yosh mollarni go'shtga parvarishlash
va bo'rdoqilash texnologiyasining asosiy parametrlari
(turli ishlab chiqarish jadalligida)**

Ko'rsatkichlar	Turli jadallik variantlari		
	I (yarim jadal)	II (o'rtacha jadal)	III (o'rtacha jadal)
Sotib olishdagi yoshi, kun	20-25	20-25	20-25
Texnologik davrlar:			
1-parvarishlash, kun	180	150	135
2-o'stirish, kun	215	170	145
3-bo'rdoqilash, kun	145	150	145
Jami boqish davri, kun	540	470	425
Tirik vaznning o'rtacha kunlik usish			
1-davrda	600	700	750
2-davrda	650	800	900
3-davrda	900	900	985
Jami boqish davrida o'rtacha, g	700	800	880

Manba. U.N.Nosirov "O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari" Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 81-bet

Ishlab chiqarishdagi texnologik davrlar 3 etapga bo'linadi (parvarishlash, o'stirish va bo'rdoqilash). Ushbu etaplarda yosh mollarni boqishning turli jadalligida o'rtacha kunlik vazn o'sishi I-davrda 600-750 grammni, II-davrda 650-900 grammni va III-davrda 900-985 grammni tashkil etadi. Ularning xo'jalikka olib kelingandagi vazni (o'rtacha) 40 kilogrammni tashkil etishadi va turli variantlardagi boqishda ularning vazni jadal uzgaradi (3.1.2-jadval).

3.1.2-jadval

Yosh mollarni boqish va bo'rdoqilash davrlarida tirik vaznning o'zgarishi va ozuqalar sarfi

Ko'rsatkichlar	Turli jadallik variantlari		
	I	II	III
Tirik vaznini o'zgarish dinamikasi, kg:			
Sotib olingandagi tirik vazni	40	40	40
I-davrning oxiridagi tirik vazni	148	145	141
II-davrning oxiridagi tirik vazni	288	281	272
III-davrning oxiridagi tirik vazni	418	416	415
Go'shtga topshirish yoshi, kun	560	490	445
Parvarishlash va bo'rdoqilash davrida 1 boshga talab qilinadigan ozuqalar, oziqa birligi	3402	3196	3000
Shu jumladan bir yil davomida, ozuqa birligi	2300	2482	2576
1 kg vazn o'sishiga sarflanadigan ozuqalar, oziqa birligi	9,0	8,5	8,0
Shu jumladan konsentrat (em) ozuqalari	3,6	3,8	4,0
Konsentrat ozuqalarning salmog'i, %	40	45	50

Manba. U.N.Nosirov "O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari" Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 82-bet

Buzoqlarni qabul qilish va yosh mollarni saqlash. Texnologiyaning 1-varianti 1-davrda buzoqlarni 20 kunligidan 7 oyligiga qadar (180 kun mobaynida) boqishda 335 boshga, II-davrda 7 oyligidan 14 oyligiga qadar 400 boshga, III-davrda 14 oyligidan 19 oyligiga qadar 300 boshga mo'ljallangan saqlash joylari tashkil yetiladi.

Buzoqlarni qabul qilish va bo'rdoqilarni go'shtga topshirish ritmi har 15 kunga to'g'ri keladi. Unda qabul qilinayotgan buzoqlar soni 26-28 boshni tashkil

etadi. Ushbu raqam sigirlarni tug'ish mavsumiga qarab ko'payishi yoki ozayishi mumkin.

Yil davomida 650-660 buzoq sotib olinadi. Ularning 95% saqlanishida har yili 620-630 bosh bo'rdoqilar go'shtga topshiriladi.

Mollarni saqlashda engil va arzon tipdagi binolar tavsiya yetiladi. Yosh mollar binolar ichida saqlanadi va oziqlantiriladi I va II-guruhdagi mollar yayratib saqlanadi. Yotish joylari uchun individual bokslar tashkil etiladi.

III-bo'rdoqilash davrida ular binolar ichida bog'lab saqlanadi va oziqlantiriladi. Ozuqa tarqatish yullari va stollari bo'ylab oziqlantirish ishlari amalga oshiriladi.

I-davrdagi buzoqlarni saqlash binolarida 12 seksiya tashkil etilib ularning har birida 26-27 tadan buzoqlar saqlanadi. II-davrdagi binolarda 20 seksiya tashkil etilib, ularning har birida 20 boshdan yosh mollar joylashtiriladi.

Sotib olingan 20 kunlik buzoqlarni 2-3 kunlari (30 kunligiga qadar) shoxsizlantirish samarali hisoblanadi. Shoxsizlantirish termik usulda bajariladi. Buning uchun elektrotermokarterdan(6-12 voltli) foydalaniladi.

Termokarter 1000 C gacha qizdiriladi (uning kuydiradigan uchi oqarib ketadi). Shoxtugunchasi atrofidagi junlar kuydirishdan oldin qirqib tashlanadi. So'ngra shoxtugunchasiga termokarterning qizdirilgan (oqargan) uchi 3-5 daqiqa bosib turiladi.

Sotib olingan buzoqlar birinchi 30 kun mobaynida karantin rejimida sakllanadi, kerakli zoovetyerinariya tadbirlari bajariladi.

Yosh mollarni oziqlantirish. Yosh mollarni go'shtga parvarishlash va bo'rdoqilish texnologiyasida oziqlantirish xili, me'yori va to'yimlilikiga alohida e'tibor beriladi. Parvarishlashning I-davri I-fazasida buzoqlarga 20 kunligidan 66 kunligiga qadar sun'iy sut (ZSM) beriladi. Sun'iy sut har kuni buzoqlarga ichirishdan oldin maxsus qurilmalarda tayyorlanadi. Sun'iy sut tayyorlashda soya unidan ham foydalanish mumkin.

I-fazada shuningdek omixta em, sifatli pichan beriladi. II-fazada o‘simlik ozuqalariga o‘tkaziladi. Ushbu fazalarda buqalar maxsus tuzilgan sxema bo‘yicha oziqlantiriladi (3.1.3-jadval).

3.1.3-jadval

Suyultirilgan sun‘iy sut retsepti (100 kg hisobiga, kg)

Komponentlar	Retseptlar		
	1	2	3
Yogi olingan sut	95.0	98,3	97.9
Konsentrat yoki oshpazlik yog‘i	1,75	-	-
Suyak yog‘i	-	1,85	2,00
Fosfat konsentrati (ozuqaviy)	0,76	0,38	-
Suyuq kazennat natriy	-	-	0,62
A vitamin preparati (tarkibida 20000 ME/ml)	0,002	0,002	0,002
D. vitamin preparati (tarkibida 200 000 ME/ml)	0,0006	0,0006	0,0006
Biovit	0,006	0,006	0,0006
Jami sarflanadigan xom ashyo	100,51	100.53	100,52
Chiqimi	100	100	100

Manba. U.N.Nosirov “O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari” Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 83-bet

Buzoqlarga sun‘iy sutni ichirish bir xil me‘yorda olib boriladi va 21-65 kunlik buzoqlarga 44 kun mobaynida 215 kg sun‘iy sut ichiriladi.

I-davrning I va II-fazalarida buzoqlar uchun 3074 kg maxsus em, 164,7 kg beda pichani (yoki mayin tabiiy pichan) va 877 kilogramm makkajo‘xori silosi beriladi. Ularning to‘yimlilikligi 681 oziqa birligi, 645 kg quruq modda, 6903 mDj almashinuvchi energiya, 79659 gramm hazmlanuvchi proteinga teng. 1 kg tirik vazni o‘shishiga 6,3 oziqa birligi, 6,0 kg quruq modda, 64 mDj almashinuvchi

energiya va 738 grammdan hazmlanuvchi protein sarflanadi. 1 kg oziqa birligiga 117 grammdan hazmlanuvchi protein to'g'ri keladi.

Texnologiyaning II va III-davrlarida mollarni boqish jadallashtiriladi. Ular asosan shirali oziqlantirish tipida boqiladi. Ratsion tarkibini silos, pichan va omixta emlar tashkil etadi.

3.1.4-jadval

Buzoqlarni boqishning I davri I va II -fazalarida oziqlantirish programmasi

Yoshi muddati, kun	Muddat kunlari	Sun'iy sut, kg		Maxsus omixta em, kg		Pichan, kg		Silos, kg	
		Bir kund	Davrd a	Bir kund	Davrd a	Bir kund	Davrd a	Bir kund	Davrd a
Birinchi faza									
21-28	7	5	35	0,4	2,8	0,1	0,7	-	-
28-35	7	5	35	0,5	3,5	0,15	1,05	-	-
35-42	7	5	35	0,6	4,2	0,23	1,61	-	-
42-49	7	5	35	0,9	6,3	0,3	2,1	-	-
49-56	7	5	35	1,3	9,1	0,3	2,1	-	-
56-63	7	5	35	1,6	11,2	0,4	2,8	-	-
63-65	2	2,5	5	1,9	3,8	0,4	0,8	-	-
Ikkinchi faza									
65-70	5	-	-	2,2	11,0	1,0	5,0	-	-
70-77	7	-	-	2,4	16,8	1,0	7,0	-	-
77-84	7	-	-	2,6	18,2	1,1	7,7	-	-
84-91	7	-	-	2,6	18,2	1,2	8,4	-	-
91-98	7	-	-	2,6	18,2	1,2	8,4	-	-
98-105	7	-	-	2,4	16,8	1,4	9,8	-	-
105-112	7	-	-	2,4	16,8	1,6	11,2	-	-
112-119	7	-	-	2,4	16,8	1,5	10,5	-	-
119-126	7	-	-	2,2	15,4	1,5	10,5	4,0	28
126-133	7	-	-	2,2	15,4	1,5	10,5	5,0	35
133-140	7	-	-	2,2	15,4	1,5	10,5	6,0	42
140-147	7	-	-	2,0	14,0	1,4	9,8	8,0	56
147-161	14	-	-	1,7	23,8	1,2	16,8	11,0	154
161-180	19	-	-	1,4	26,6	1,0	19,0	13,0	247
180-201	21	-	-	1,1	23,1	1,0	21,0	15,0	315
Jami:	180	-	215	-	307,4	-	164,7	-	877
O'rtacha 1-kunda	-	-	11,19	-	1,71	-	0,92	-	10,7

Manba. U.N.Nosirov "O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari" Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 84-bet

Texnologiyaning II-davrida (o'sish) sarflanadigan ozuqalar to'yimligi 1379 oziqa birligi, 1356 kg quruq modda, 10380 mDj almashinuvchi energiya, 190049 gramm hazmlanuvchi proteinga teng. Ushbu davrda mollarni 1 kilogramm semirishiga 9,85 oziqa birligi, 9,69 kg quruq modda, 74 mDj almashinuvchi energiya va 1357 gramm hazmlanuvchi protein sarflanadi.

III-davrda (bo'rdoqilash) gi oziqlantirish sxemasidagi ozuqalarda 1369 oziqa birligi, 1609 kg quruq modda, 15873 mDj almashinuvchi energiya va 196893 gramm hazmlanuvchi protein mavjud. 1 kg qo'shimcha vazn olish uchun 10,53 oziqa birligi, 12,38 quruq modda, 122 mDj almashinuvchi energiya va 1515 grammdan hazmlanuvchi protein sarflanadi.

Texnologiya davrlarida 215 kg sun'iy sut, 4930 kg silos, 2295 kg senaj, 652 kg pichan va 1052 kilogramm konsentrat ozuqalar sarflanadi. Ularning to'yimligi 3429 oziqa birligiga, 3610 kg quruq moddaga, 33156 mDj almashinuvchi enyergiyaga, 466,601 kilogramm hazmlanuvchi proteinga teng. 1 kg semirish uchun 9,07 oziqa birligi sarflanadi. Xo'jalik yil davomida 257-260 tonna go'sht ishlab chiqaradi.

Go'shtchilik xo'jaliklarida yosh mollarni o'stirish va bo'rdoqilash texnologiyasi. Go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarning ikkinchi tipidagilari shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda qishloq xo'jalik korxonalari. Ularda 4-6 oylik sutdan chiqarilgan erkak buzoqlar sotib olinib o'stirishga va bo'rdoqilashga qo'yiladi. 420-450 kilogramm vaznga yetgunga qadar bo'rdoqilaniadi.

Buzoqlarni sut ichish davrida reproduktor xo'jaliklarning o'zida parvarishlash. Yangi tug'ilgan buzoqlar 15 kunligiga qadar profilaktoriya xonalarida parvarishlanadi. Profilaktoriya fazasining birinchisi 5-7 kunida buzoqlarga onasining og'iz suti ichiriladi va so'ngra sof sutga o'tiladi. Og'iz sutini yangi tug'ilgan buzoqlarga mumkin qadar tezroq va keyingi 2-3 kun mobaynida ko'proq ichirishga e'tibor beriladi. Sut ichirish davrida buzoqlarning o'rtacha kunlik vaznini 400 grammga oshirish tavsiya yetiladi.

3.1.5-jadval

Novvoslarni boqish va bo'rdoqilashning II va III-davrda oziqlantirish programmasi

Usish davri, kun	Davrdagi kunlar	Silos, kg		Senaj, kg		Pichan kg		Konsentrat ozuqalar, kg	
		Bir kunda	Davr kunlarida	Bir kunda	Davr kunlarida	Bir kunda	Davr kunlarida	Bir kunda	Davr kunlarida
II-davr (usish)									
180-210	30	10	300	4,0	120	1,2	36	1,2	36
210-240	30	11	330	4,5	135	1,2	36	1,2	36
1240-270	30	12	360	5,0	150	1,2	36	1,3	39
270-300	30	13	390	5,5	165	1,2	36	1,3	39
300-330	30	14	420	6,0	180	1,2	36	1,4	42
330-360	30	15	450	6,0	180	1,2	36	1,5	45
360-395	35	16	560	6,0	210	1,5	53	1,8	63
Jami:	215	13,1	2810	5,3	1140	1,24	269	1,39	300
III-davr (usish)									
395-425	30	16	480	7,0	210	1,5	45	2,2	66
425-455	30	15	450	7,5	225	1,5	45	2,6	78
455-485	30	14	420	8,0	240	1,5	45	3,1	93
485-515	30	14	420	8,5	255	1,5	45	3,6	108
315-540	25	14	350	9,0	225	1,5	38	4,0	100
Jami:	145	14,5	2120	8,0	1155	1,5	218	3,1	445

Manba. U.N.Nosirov "O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari" Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 85-bet

Reproduktor xo'jaliklarida buzoqlarni 4 oyligiga kadar oziqlantirish sxemasining turli variantlari 3.1.6-jadvalda byerildi.

3.1.6-jadval

Buzoqlarni 4 oyligiga qadar oziqlantirish sxemasi (bir boshga), kg

Ozuqalar	Variantlar		
	1	2	3
Ogiz suti	28	28	28
Sof sut	200	350	80
YOgi olingan sut	400		
Sun'iy sut			28
Pichan	50	60	60

Silos	200	200	
Omixta em	150	150	180
Minyeral vitamin qo‘shimchalari	3,5	3,5	3,5
Ozuqa birligi	401	331	306
Quruq modda	240	232	247
Almashinuvchi enyergiya, mDj	3553	3538	2819
Hazmlanuvchi protein	52	44	40

Manba. U.N.Nosirov “O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari” Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 85-bet

Har bir reproduktor xo‘jaligi o‘z imkoniyatlarida buzoqlarni bokishning ushbu uch xil sxemalaridan foydalanishlari mumkin.

Yangi tug‘ilgan buzoqlarga 7 kun mobaynida og‘iz va o‘tish sutlarini har kuni 4 kilogrammdan berish lozim.

Go‘shchilik xo‘jaligida yosh mollarni parvarishlash va o‘stirish texnologiyasi. Sotib olingan 4-6 oylik erkak buzoqlar texnologiyaning 1-parvarishlash davrida 120 kun va II-o‘stirish davrida 210 kun boqiladi. Ularni texnologik sxemasi quyida keltirildi (3.1.7-jadval).

3.1.7-jadval

Parvarishlash va o‘stirish davrining texnologik sxemasi

Mollar vaznining o‘shishi	Ozuqa turlari	Oziqlantirish turlari				
		kg	Ozuqa birligi	Kuruk modda, kg	Almashinuvchi enyergiya, MDj	Hazmlanuvchi protein, kg
I-davr (parvarishlash 6-10 oylik) 120 kun						
Tirik vazni 100-172 kg, o‘rtacha kunlik o‘shish 600 g	Shirali ozuqalar	950	190	238	2185	13,3
	Dag‘al ozuqalar	398	175	330	2675	40,0
	Konsentrat ozuqalar	180	162	153	1800	18,0

II-davr (o‘stirish 10-17 oylik) 210 kun						
Tirik vazni 172-350 kg, o‘rtacha kunlik o‘shish 850 g	SHirali ozuqalar	2500	580	625	5750	35,0
	Dag‘al ozuqalar	945	415	784	6350	94,5
	Konsentrat ozuqalar	650	585	553	6500	65,0

Manba. U.N.Nosirov “O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari” Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 86-bet

Ishlab chiqarish siklining 1-davrda (parvarishlash) oziqlantirish ratsioni mollarni har kuni 600 grammdan o‘stirishga mo‘ljallangan. Qish faslida ratsionning 36 foizini dag‘al va 30 foizini konsentrat ozuqalar tashkil qiladi.

Mollarni bir xil oziqlantirish tipiga o‘tkazish va yil davomida qishki ratsionda boqish samarali hisoblanadi.

Birinchi davrdagi oziqlantirish tipi va me‘yorida ozuqalarning to‘yimligi 527 oziqa birligi, 721kg quruq modda, 6660 mDj almashinuvchi energiya, 71 kg hazmlanuvchi proteinga teng bo‘lib, 1 kg tirik vazn o‘shishiga 7,31 oziqa birligi, 10,0 kg quruq modda, 92 mDj almashinuvchi energiya 990 grammdan hazmlanuvchi protein sarflanadi.

Parvarishlashning II-davrida (o‘shish mollarni boqish konsentrat ozuqalar miqdorini ko‘paytirish (39%) hisobida jadallashtiriladi. Shirali dag‘al va konsentrat ozuqalar to‘yimligi 1500 oziqa birligi, 1962 kg quruq, modda, 18600 mDj almashinuvchi enyergiya va 195 kg hazmlanivchi protein miqdorida ta‘min yetiladi.

II-davrda mollarning 850 grammdan o‘rtacha kunlik yoki 178 kg mutloq, vazn o‘shishida uning 1 kilogrammiga 8,43 oziqa birligi, 11,0 kg quruq, modda, mDj almashinuvchi energiya va 1095 grammdan hazmlanuvchi protein sarflanadi.

Yosh mollarni go‘shiga tayyorlashning yakuniy davri burdoqilash hisoblanadi. Bo‘rdoqilash texnologiyasi bo‘yicha 150 kun bo‘rdoqi qilinadi. Burdoqilash davri uch fazaga bo‘linadi: birinchisi tayyorlash (30 kun), ikkinchisi asosiy (60 kun) va uchinchisi yakuniy (60 kun). Ushbu fazalarda mollar vaznini kunlik o‘shishi 900-1000 grammga ta‘min etiladi (3.1.8- jadval).

3.1.8.-jadval

Boʻrdoqilash davrining texnologik sxemasi

Mollar vaznining oʻsishi	Ozuqa turlari	Ozuqalar miqdori, kg	Toʻyimliligi			
			Oziqa birligi	Kuruk modda, kg	Almashinuvchi energiya, MDj	Hazmlanuvchi protein, kg
I-faza (tayyorlash) 30 kun						
Tirik vazni 350-375 kg, oʻrtacha kunlik oʻsish 900 g	Shirali ozuqalar	600	120	150	1380	18,4
	Dagʻal ozuqlar	135	60	112	907	13,6
	Konsentrat ozuqalar	150	135	128	1500	15,01
II-faza (asosiy qism) 60 kun						
Tirik vazni 375-430 kg, oʻrtacha kunlik oʻsish 950 g	SHirali ozuqalar	1100	220	275	2530	15,4
	Dagʻal oziqa	273	120	227	1835	27,6
	Paxta-sheluxasi	340	115	239	1564	4,3
	Konsentrat ozuqalar	361	325	307	3610	36,0
III-faza (yakuniy k,ism) 60 kun						
430-490 kg, oʻrtacha kunlik oʻsish 1000 g	SHirali ozuqalar	1100	220	275	2530	15,4
	Paxta sheluxasi	614	135	522	2824	7,8
	Konsentrat ozuqalar	450	450	383	4500	45,0
Jami:			1860	2668	23180	188,5

Manba. U.N.Nosirov "Oʻzbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari" Toshkent-SMI-ASIA- 2011. 87-bet

Boʻrdoqilashning oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Birinchisi tirik vazni genetik imkoniyatlarida namoyon yetish. Ikkinchisi engil hazm boʻluvchi kuchli ozuqalardan samarali foydalanish, uchinchisi mollar semizlik darajasini yuqori kondensiyaga yetkazish.

Boʻrdoqilashning I-fazasida ozuqalarning 315 oziqa birligi (390 kg quruq, modda) toʻyimligida ularning 38 foizini shirali, 19 foizini dagʻal, 43 foizini konsentrat ozuqalar tashkil yetadi. Mollar kuchli ozuqalarni koʻproq hazm qilishga oʻrgatib boriladi. II-fazada ratsionga paxta sheluxasi kiritiladi va konsentrat ozuqalar miqdori oshiriladi. Ozuqalarning toʻyimliligi 740 oziqa birligida oʻrtacha kunlik taʼminoti 12,3 ni tashkil etadi. 1 kilogramm semirishiga 13,5 oziqa birligi, 20 kg quruq modda, 173 mDj almashinuvchi energiya va 1,5 kg hazmlanuvchi

protein sarflash mo'ljallanadi. Konsentrat oзуqalar salmog'i 44 foizga yetkaziladi. Paxta sheluxasi to'yimligi bo'yicha 10 foizda kiritiladi.

III-fazada konsentrat va shirali oziqalar hamda paxta sheluxasidan samarali foydalanish hisobidan mollarning o'rtacha kunlik semirishi 1000 grammga oshiriladi. Ozuqalar mollarga berishdan oldin qayta ishlanadi (maydalanadi, yanchiladi, aralastiriladi, osh tuzi va boshqa qo'shimchalar qo'shib omixta qilinadi) uning ta'mi yaxshilanib, engil hazm bo'lishiga erishiladi. Ratsiondgi konsentrat oзуqalar (omixta em, shrot za makkajo'xori yormasi) miqdori 56 foizga ko'tariladi. Shirali oзуqalar 27 va paxta sheluxasi 17 foizni tashkil etadi. Jami bo'lib 805 yoki har kuni o'rtacha 3,5 oziqa birligi sarflanadi. Kunlik ratsionda 18 kg shirali, 10 kg paxta sheluxasi va 75 kg konsentrat oзуqalar beriladi.

Bo'rdoqilash davrida (150 kunda) sarflanadigan oзуqalar to'yimligi 1860 oziqa birligi, 2668 kg quruq modda, 23 180 mDj almashinuvchi energiya va 188,5 kg hazmlanuvchi proteinni tashkil yetadi. Ularning mutloq, vazn o'sishi 140 kilogramm (o'rtacha kunlik 933 g) va uning 1 kilogrammiga sarflanadigan oziqa birligi 13,3 ga teng.

Har bir tumanda qoramollarni bo'rdoqilashni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash go'shtchilik fermer xo'jaliklari yoki korxonalarini tashkil qilish asosida amalga oshiriladi. 1000 bosh yosh mollarni parvarish qiluvchi xo'jaliklarning yillik go'sht ishlab chiqarish hajmi 340-350 tonnani va mollarni go'shtga topshirish vazni 480-500 kilogrammni tashkil yetadi.

3.2. Yosh qoramollarni go'sht uchun o'stirish texnologiyasi

Samarqand viloyati Tayloq tumani fermer xo'jaliklari tez o'zgaruvchan iqlim sharoitida joylashganligi ya'ni issiq yozi, bahorining namgarchiligi va sovuq qishi bilan farq qiladi.

Ob - havoni kuzatish markazi (meteorologiya) ma'lumotlariga ko'ra, havo harorati yoz fasllarida +43 0C, qish faslida esa -27 0C gacha yetadi. Fermer xo'jaligida go'sht mahsuloti ishlab chiqarish yil bo'yi davom yetib, bunga

so‘qimlash uchun rejalashtirilgan yangi tug‘ilgan buzoqlarni go‘sharga topshirishgacha bo‘lgan vaqt kiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, qoramollarni bo‘rdoqilash texnologiyasida, yakuniy so‘qimlash davri muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon hayvonlarni mahsuldorlik yo‘nalishi, zoti, jinsi va asrash hamda oziqlantirish sharoitiga bog‘liq holda 15-18, 15-19, 18-21, 21-24 oylikgacha bo‘lgan davrini tashkil yetdi.

Hozirgi vaqtda Respublikamiz jumladan Tayloq tumani fermer xo‘jaliklarida ham go‘sh tashlab chiqarish uchun har tomonlama maqbul bo‘lgan texnologiyadan foydalanish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Biz Tayloq tumani qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini tahlil qilganimizda, yakuniy so‘qimlash texnologik jarayoni ochiq maydonlarda (yilning fasliga qarab) va binolarda bog‘lanmasdan tashkil qilinganligini kuzatdik.

Ilmiy adabiyot ma’lumotlaridan shu narsa ma’lumki, yakuniy so‘qimlash davrida hayvonlarni bog‘lab bo‘rdoqilash nafaqat zootexnikaviy balki iqtisodiy jihatdan ham samarali bo‘ladi. (A.Kaharov 1994, U.Nosirov 2009).

SHuning uchun ham biz, bitiruv malakaviy ishimizda ushbu texnologik omillarni Tayloq tumani qoramolchilikka ixtisoslashgan “Chorvador Uroqov” fermer xo‘jaligi sharoitida o‘rgandik.

“Chorvador Uroqov” fermer xo‘jaligi chorvachilik va dehqonchilikka ixtisoslashgan bo‘lib, bu yerda chorvachilik asosiy tarmoq bo‘lib hisoblanadi. Chorvador Uroqov fermer xo‘jaligi 1993-yil mustaqillikning ilk yillarida tashkil yetilgan bo‘lib, hozirda ilg‘or fermer xo‘jaliklaridan biri bo‘lib xalqimizga xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

3.2.1-jadval

Chorva mollar bosh soni

Mollar turi	2011			2012			2013		
	Reja	Haqi-qatda	Farqi ±	Reja	Haqi-qatda	Farqi ±	Reja	Haqi-qatda	Farqi ±
Jami qoramollar	260	247	-13	270	274	+4	300	303	3

Shundan: sigirlar	74	70	-4	80	82	+2	90	92	+2
G'unajinlar	42	37	-5	45	40	-5	45	45	-
1 yoshdan katta tanalar	46	44	-2	50	54	+4	55	55	
1yoshgacha buzoqlar	60	58	-5	65	66	+1	68	69	+1
Bo'rdoqi mollar	34	34	-	35	34	-1	37	37	-
Naslli buqalar	4	4	-	5	5	-	5	5	-

Manba. "Chorvador Uroqov" fermer xo'jalik ma'lumotidan.

Hozirgi kunda "Chorvador Uroqov" fermer xo'jaligida jami qoramol bosh soni 303 tani tashkil etib, shulardan: sigirlar 92 bosh, g'unajinlar 45 bosh, 1 yoshdan katta tanachalar 55 bosh, 1 yoshgacha buzoqchalar 69 bosh, bo'rdoqidagi buqachalar 37 bosh, naslli buqalar 5 boshni tashkil yetadi.

"Chorvador Uroqov" fermer xo'jaligida chorva mollarining mahsuldorligi quyidagi 3.2.2 - jadvalda keltirilgan.

3.2.2-jadval

Chorva mollarining mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	2011			2012			2013		
	Reja	Haqiqatda	Farqi ±	Reja	Haqiqatda	Farqi ±	Reja	Haqiqatda	Farqi ±
Bir bosh sigirlardan olingan sut, kg	2100	2100	-	2300	2350	+50	2500	2550	+50
Har 100 bosh	85	82	-3	85	86	+1	90	88	-2

sigirdan olingan buzoq (bosh)									
Soʻtkalik semirish (gr)	500	510	+10	500	530	+30	550	550	-

Manba. “Chorvador Uroqov” fermer xoʻjalik maʼlumotidan.

Xoʻjalikda har 100 bosh sigirdan 88 ta buzoq olinib, bir bosh sigirdan oʻrtacha 2550 kg sut sogʻib olinmoqda. Xoʻjalikda sut sogʻib olish rejaga nisbatan 102 % ortigʻi bilan bajarilib kelinmoqda, tirik vaznda goʻsht miqdori ham xoʻjalikda rejaga asosan toʻligʻicha bajarilgan. Chunki xoʻjalikda rejaga asosan sutkalik semirish 550 grammni tashkil yetishi kerak boʻlsa, bu toʻligʻicha bajarilmoqda.

Quyidagi 3.2.3jadvalda fermer xoʻjaligining chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan boʻlib,

3.2.3-jadval

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish

Koʻrsatkichlar	2011			2012			2013		
	Reja	Haqiqatda	Farqi ±	Reja	Haqiqatda	Farqi ±	Reja	Haqiqatda	Farqi ±
Sut ishlab chiqarish va sotish (tonna)	155.4	147	-8.4	184	192.7	+8.7	225	234.6	+9.6
Goʻsht yetishtirish va sotish (s)	55	59	+4	60	62	+2	65	68	+3
Nasl uchun sotish (bosh)	20	21	+1	25	25	-	25	25	-

Manba. “Chorvador Uroqov” fermer xoʻjaligi maʼlumotlaridan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "Chorvador Uroqov" fermer xo'jaligi chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, yillik rejani o'tgan uch yilda ortig'i bilan bajargan.

Tajriba uchun o'xshashlik asosida qora-ola zotli 20 bosh 15 oylik buqachalarni ajratib, ularni 10 boshini (nazorat guruhi) xo'jalikda qabul qilingan texnologiyaga binoan 18 oyligigacha ya'ni yakuniy so'qimlash davomida binoda bog'lamasdan boqdik. 10 boshini esa (tajriba guruhi) yakuniy so'qimlash davomida, ya'ni 15 oydan 18 oylikgacha binoda bog'lab boqdik. Tajriba davomida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi:

- kuzatuvdagi hayvonlarning o'sish sur'ati
- kuzatish davomida iste'mol qilingan oziqalar miqdori
- tajribadagi hayvonlarning oziqaga haq to'lashi
- tajribadagi hayvonlarning so'yim ko'rsatkichlari
- iqtisodiy samaradorlik.

Ma'lumki hayvonlarni shu jumladan qoramollar mahsuldorligiga ta'sir qiladigan omillardan biri va asosiysi bu oziqlantirishdir. Biz tajriba davomida hayvonlarni xo'jalikni o'zida yetishtirilgan oziqalardan tuzilgan ratsion bilan jadal usulda oziqlantirdik (3.2.4-jadval).

3.2.4-jadval

Tajriba davomida bo'rdoqilanayotgan har bir boshga ozuqalar sarflanishi, kg

Ozuqalar	Tajriba	Nazorat
Yashil beda	1568	1552
Yashil makkajo'xori	2519	2369
Beda pichani	664	654
Makkajo'xori silosi	1216	1156
Senaj	522	522
Olma tuppasi	91	91
Xashaki lavlagi	697	697

Omixta em	660	660
Paxta shroti	107	99
Paxta sheluxasi	1440	1440
Osh tuzi	16,1	16,1
Umumiy to'yimlilik:		
Ozuqa birligi, kg	3050,6	3003,5
Hazm qilinadigan protein, kg	360,3	352,1

Manba. Amaliy-ilmiy tadqiqot ma'lumotlari.

Tajriba va nazorat guruhidagi buqachalar 3 oylikdan boshlab to'siqxonalarda saqlanib, 1 oyidan boshlab omuxta em berila boshlandi. Kuzgi va qishki oylarda asosan makkajo'xori silosi va xashaki lavlagi bilan, yoz oylarida esa yashil beda va yashil makkajo'xori bilan, dag'al ozuqalardan esa beda pichani bilan oziqlantirildi.

Tajriba davomida, har ikkala guruhdagi buqachalarga omixta em talab qilinganigacha ya'ni maksimal kunlik o'sishga ega bo'lgan va tajriba oxirida yuqori semizlik darajasiga yetishguncha berilib borildi.

Guruhdagi buqachalar tajriba oxirigacha, ya'ni 18 oylikgacha 3050,6 va 2 nazorat guruhlardagi buqachalar esa 3003,5 kg ozuqa birligiga teng bo'lgan ozuqa iste'mol qilishdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tajribadagi buqachalar yosh ortishi bilan rejadagi oziqalar miqdori ham o'zgarib bordi, masalan 1 yoshdan oshgan buqachalarning ratsionini asosan omixta em, paxta sheluxasi, yashil beda va yashil makkajo'xori tashkil qildi.

Shunday qilib, tajribadagi ikkala guruh buqachalar bir xil ratsiondagi ozuqalar bilan oziqlantirildi. Aniqrog'i ularni oziqlantirish sharoiti bir xil bo'lgan.

Tajribadagi buqachalarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari go'sht mahsuldorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tajribadagi hayvonlarning tirik vaznining yosh ortishi bilan o'zgarishini biz quyidagi 3.2.5- jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

3.2.5.-jadval

Har xil texnologiyada go'sht uchun o'stirilayotgan yosh qoramollarning tirik vazni, kg

Yoshi oy hisobida	Guruhlar			
	(Tajriba) yakuniy so'qimlashda bog'lab boqish (n=10)		(Nazorat) yakuniy so'qimlashda bog'lamasdan boqish (n=10)	
	X±Sx	Cv	X±Sx	Cv
3	85,4±1,70	6,30	83,5±0,75	4,1
6	149,2±1,45	5,3	144,1±1,7	5,9
9	225,5±1,32	3,8	202,6±2,05	7,3
12	285,3±2,90	10,5	264,3±3,56	12,99
15	361,71±2,81	10,2	337,90±3,4	12,9
18	468,73±2,83	10,26	439,93±3,7	13,3

Manba. Amaliy-ilmiy tadqiqotlar natijasi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tajribaga qo'yilgan 3 oylik buqachalarning tirik vazni tajriba guruhda 85,4 kg ni, nazorat guruhida esa 83,5 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, yosh ortishi bilan ya'ni 12 oyligida tajriba guruhda 285,3 kg ni, 2 -chi nazorat guruhida esa 264,3 kg ni, tajriba oxirida ya'ni 18 oyligida, tajribadagi ya'ni so'qimlashning oxirgi oylarida bog'lab boqilgan buqachalarning tirik vazni 468,73kg ni, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 439,93 kg ni tashkil etgan.

Ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, so'qimlashning oxirgi oylarida bog'lab boqilgan buqachalar, nazorat guruhidagi buqachalarga nisbatan 28,8 kg yuqori tirik vaznga ega bo'lishgan.

Tajribadagi go'sht uchun o'stirilayotgan buqachalarning mutloq o'sishi va 1 kg tirik vazn uchun sarflangan ozuqa miqdori quyidagi 3.2.6- jadvalda keltirilgan.

3.2.6.-jadval

Tajribadagi hayvonlarning iste'mol qilgan oziqani tirik vazn bilan qoplashi (o'rtacha bir boshi)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
	Tajriba	Nazorat
Tajriba davomiyligi, kun	480	480
Tajriba boshidagi tirik vazni, kg:	85,4	83,5
Tajriba oxiridagi tirik vazn, kg	468,73	439,93
Olingan qo'shimcha tirik vazn, kg	383,3	356,4
Kunlik o'sish, g	798	742
1kg tirik vazn uchun sarflangan ozuqa, ozuqa birligida	7,95	8,42

Manba. Amaliy-ilmiy tadqiqotlar tanijasi.

3.2.6.-Jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhidagi buqachalarining tajriba boshidagi tirik vazni 85,4 kg bo'lib, so'qimlash davrining oxiriga kelib 468,73 kg ga yetgan, bunda mutloq o'sish 383,3 kg ni tashkil qilib, kunlik o'sish 798 g bo'lgan. 1 kg tirik vazn uchun 7,95 kg ozuqa birligi sarflangan.

Nazorat guruhidagi buqachalarni tajriba tirik vazni 83,5 kg ni tashkil etib, so'qimlash oxirida 439,93 kg tirik vaznga yetgan. Mutloq o'sish 356,4 kg ni tashkil etib, kunlik o'sish 742 g ni tashkil qilgan. 1 kg qo'shimcha tirik vazn uchun 8,42 ozuqa birligi sarflangan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhidagi buqachalar tajriba davomida 1kg qo'shimcha tirik vazn uchun nazorat guruhidagi buqachalarga nisbatan 0,47 (5,91%) ozuqa birligi kam iste'mol qilgan. Ayniqsa ular o'z tengqurlariga qaraganda 56 gramm (7,5 %) ko'p kunlik o'sishga yerishishgan.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda jadal texnologiyada qoramollarni go'sht uchun o'stirish texnologiyasining qaysi xili maqbul ekanligini bilish maqsadida buqachalarni so'qimlashning 18 oyligida nazorat so'yimi o'tkazdik 3.2.7-jadval.

Tajribadagi buqachalarning so'yim ko'rsatkichlari (n=10)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
	Tajriba	Nazorat
So'yim oldi tirik vazni, kg	447,5	420,1
Nimta og'irligi, kg	248,0	231,5
Nimta chiqimi, %	55,4	55,1
Ichki yog', kg	12,8	12,4
Ichki yog' chiqimi, %	2,86	2,95
So'yim og'irligi, kg	260,8	243,9
So'yim chiqimi, %	58,2	58,0

Manba. Amaliy- ilmiy tadqiqotlar tanijasi.

Tajribadagi buqachalarning so'yim ko'rsatkichlari 3.2.7- jadvalda keltirilgan bo'lib, 1 chi tajriba guruhidagi buqachalarning so'yim oldi tirik vazni 447,5 kg ni tashkil etib, bu ko'rsatkich bo'yicha o'z tengqurlarini 27,4 kg, yoki 9,4 % ortga qoldirgan. Nimta va so'yim og'irligi bo'yicha farq tegishlicha: 16,5 kg yoki 7,1 % va 16,9 kg yoki 6,9 % ni tashkil qilgan. So'yim chiqimi guruhlarda, shunga mos ravishda 58,2 va 58,0 % bo'lgan.

Shunday qilib, so'yim ko'rsatkichlari bo'yicha yakuniy so'qimlashning binoda bog'lab tashkil qilingan tajriba guruhidagi hayvonlar, o'z tengqurlari ya'ni yakuniy so'qimlanish binoda bog'lamasdan tashkil qilinganlaridan ustun bo'lgan.

3.3. Yosh qoramollarni go'sht uchun boqishni iqtisodiy samaradorligi

Biz o'z malakaviy bitiruv ishimizda Tayloq tumanidagi "Chorvador-Uroqov" fermer xo'jaligida, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yosh buzoqchalarni go'sht uchun o'stirish texnologiyasining ikki usuli, bo'rdoqilash davrining oxirida buqachalarni bog'lab so'qimlash va bog'lamasdan so'qimlash usullarini o'z tajribamizda sinab, tahlil qilib, iqtisodiy samaradorligini aniqladik.

Quyidagi ushbu 3.3.1-jadvalda tajribadagi yosh qoramollarni go'sht uchun o'stirish texnologiyasining samaradorligi keltirilgan bo'lib, tajriba va nazorat guruhlaridagi buqachalar 18 oylikkacha ya'ni 480 kun o'stirilgan, parvarishlangan va bo'rdoqilgan.

3.3.1-jadval

Tajribani iqtisodiy samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
		Tajriba	Nazorat
1	Tajriba muddati, kun	480	480
2	Tajriba davomida sarflangan ozuqa, ozuqa birligi	3050,6	3003,5
3	Tajriba davomida olingan qo'shimcha tirik vazn, kg	383,3	356,4
4	Qilingan jami Harajat, ming so'm	3269.5	3218.1
5	SHu jumladan ozuqa Harajati, ming so'm	2287.9	2252,7
6	1 s tirik vaznning tannarxi, ming so'm	85.3	90.3
7	1 s tirik vazni Harid narxi, ming so'm	110.0	110.0
8	Sotishdan olingan yalpi daromad, ming so'm	4216.3	3920.4
9	Olingan sof foyda, ming so'm	946.8	702.3
10	Rentabellik darajasi, %	29.0	21,8

Manba. Shaxsiy tadqiqotlar tanijasi.

Tajribaning 1 kunidan 18 oyligigacha tajriba guruhidagi buqachalarga 3050,6 kg ozuqa birligidagi ozuqa sarflangan. Nazorat guruhidagi, ya'ni bog'lanmasdan so'qimlangan buqachalarga esa 3003,5 kg ozuqa birligidagi ozuqa sarflangan.

Tajriba boshida, ya'ni 3 oyligida tajriba va nazorat guruhlaridagi buqachalarning tirik vazni tegishli 85,4 va 83,5 kg ni tashkil etdi. So'qimlash davrining oxirida esa ya'ni 18 oyligida bu ko'rsatkich tegishli 468,73 va 439,93 kg bo'lgan, farqi tajriba guruhi foydasiga 28,8 kg ni tashkil etdi. Tajriba davomida olingan qo'shimcha tirik vazn tajriba guruhda 383,3 kg, nazorat guruhida esa 356,4 kg ni tashkil qilgan.

Jadval ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, xo'jalikda 1 kg oziqa birligi 550 so'mni tashkil yetgan bo'lib jami qilingan harajatni deyarli 70 % ga tengdir.

Shuning uchun ham oziqa harajati guruhlarda tegishlicha 2287,9 va 2252,7 ming so'mga teng bo'lgan. 1 s tirik vazni tannarxi tajriba guruhida 85,3 ming so'mni, nazorat guruhida esa 90,3 ming so'mni tashkil yetgan.

Olingan sof foyda bo'yicha ham tajriba guruhi 946,8 o'z tengqurlarini orqada qoldirgan 702,3ming so'm.

Shunday qilib, go'shtga boqish texnologiyasi to'g'ri tashkil qilinsa nafaqat zootexnikaviy, balki iqtisodiy jihatdan samarali bo'lar ekan.

4. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

4.1 Fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning hozirgi holati va dinamikasi

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo‘jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobiy hal etilishiga bevosita ta’sir etadi.

2014 yilda qoramolchilikni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar doirasida: qoramollar sonini 11mln.145ming bosh, shundan sigirlar sonini 4 mln.120 ming boshga yetkazish; chetdan 8 ming boshdan ortiq naslli qoramollar olib kelish; 2 mln.100 ming bosh sigirlarni sun’iy urug‘lantirish belgilangan.

Qoramolchilik bo‘yicha 532 ta kichik qoramolchilik xo‘jaliklari tashkil etildi va ularda 14 ming 64 bosh qoramol parvarish qilinmoqda. Buning uchun jami 84 mlrd. 794 mln. so‘mlik mablag‘ o‘zlashtirildi. Qoramolchilikni rivojlantirishda naslchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Joriy yilda xorijiy davlatlardan jami 31 bosh naslli qoramollar olib kelinib, ularning umumiy soni 36 ming 621 boshni tashkil etadi. Bugungacha chetdan keltirilgan naslli mollardan 104,2 ming boshdan ortiq naslli buzoqlar olindi va ularning umumiy soni 148,8 ming boshga yetkazildi.

Naslchilik xo‘jaliklarida tayyorlangan 1,6 ming boshdan ortiq naslli mollar, auksion savdolari orqali aholi va dehqon xo‘jaliklariga sotildi. Sun’iy urug‘lantirish uchun joylarga 395 ming dozadan ortiq naslli urug‘ yetkazib berildi. Mavjud 4,5 mingdan ortiq zooveterinariya va sun’iy urug‘lantirish shoxobchalari tomonidan 217 ming bosh sigirlar sun’iy urug‘lantirildi. Shu kunga qadar zooveterinariya shoxobchalari orqali 2,8 mlrd. sumlik servis xizmatlari ko‘rsatildi (o‘tgan yilga nisbatan 1,1 mlrd. so‘m ko‘p).

Kam ta’minlangan oilalarga jami 1669 bosh qoramol bepul yetkazib berildi.

Joriy yilning birinchi choragida Chorva mollari ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida barcha toifa xo'jaliklar tomonidan 6,7 ming gektar asosiy maydonlarga bahorgi beda, 915 gektarga silos uchun makkajo'xori va 1644 gektar maydonga xashaki lavlagi ekilishi ta'minlandi. Shundan, Chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 5,9 ming gektar yangi beda, 647 gektar silos uchun makkajo'xori va 1,3 ming gektar xashaki lavlagi ekildi. Bundan tashqari qoramolchilikka ixtisoslashgan naslchilik fermer xo'jaliklariga 53 dona zamonaviy sut sog'ish uskunasi o'rnatildi.

Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e'tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, baliqchilik, asalarichilik, andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati korxonalarini uchun go'sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta'minlanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo'lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi.

Bundan tashqari chorvachilikda o'simlikchilik va chorvachilikning ayrim sohalari rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulotlar ham yetishtirilmoqda. Masalan, chorva chiqindisi – go'ng tuproq unumdorligini oshiradi, o'simliklar uchun organik o'g'it hisoblanadi. Chorvachilik mahsuloti sut esa aholi tomonidan iste'mol qilinishidan tashqari yangi tug'ilgan yosh hayvonlarga ham beriladi.

Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishini, ishlab chiqarish faoliyati samaradorlik darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- chorva hayvonlari bosh sonining o'zgarish darajasi. Uni aniqlash uchun haqiqiy muddatga bo'lgan ma'lumot bo'yicha ko'rsatkichni qiyoslanayotgan vaqtdagi ma'lumot bo'yicha ko'rsatkichga taqsimlash lozim. Bu usuldan foydalangan holda yetishtirilayotgan Chorvachilik mahsulotlari miqdorini, tarmoq mahsuludorligining yillar bo'yicha o'zgarishini aniqlash, bu boradagi ko'rsatkichlar koeffitsientda yoki foizda aniqlanishi mumkin;

- chorva hayvonlarining mahsuldorligi. Bu ko'rsatkich yetishtirilgan

mahsulot miqdorining (turlari bo'yicha) shu mahsulotni bergan hayvonlar bosh soniga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$CHX_m = \frac{M_m(\text{Gyuum, cym})}{B_c} ;$$

Bunda: CHX_m–Chorva hayvonlarining mahsuldorligi (kg);

M_m–yetishtirilgan go'sht, sut, jun, tuxum miqdori (sentnyer, ming dona);

B_s- Chorva hayvonlarining bosh soni.

- **Chorva hayvonlarining sutkalik o'rtacha o'sish vazni.** U chorva hayvonlarining ma'lum muddatdagi o'sgan vaznini Shu o'sishni ta'minlagan muddatga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_u = \frac{X_y}{M} ;$$

Bunda: S_u–Chorva hayvonlarining sutkalik o'sishi (grammda);

X_u–hayvonlarning ma'lum muddatdagi o'sgan miqdori (kg);

M–mahsulot o'sishini ta'minlagan muddat (sutka);

- Chorvachilik mahsulotlarining 1 sentnerini yetishtirish uchun sarflangan ozuqa birligi. Uni aniqlash uchun sarflangan ozuqa birligi miqdorini shu ozuqa evaziga yetishtirilgan mahsulot miqdoriga (turlari bo'yicha) taqsimlash lozim yoki uning aksidan ham foydalanish mumkin;

- Chorvachilik tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi (kg/kk; kk/kg; sum/kk...). U mahsulot yetishtirish uchun sarflangan vaqt miqdorining Shu vaqtda yetishtirilgan mahsulotga nisbati bilan yoki aksincha aniqlanadi;

- Chorvachilik tarmoqlarining, mahsulotlarining (turlari bo'yicha) rentabellik (foydalilik) darajasi.

Fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holatini Tayloq tuman fermer xo'jaliklari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagi natijalarga ega bo'lamiz.

Dastlab tuman fermer xo'jaliklarida mavjud chorva mollari va parrandalar bosh sonini quyidagi jadval orqali ko'rib o'tsak. (4.1.1-jadval)

4.1.1-jadval

Tayloq tuman fermer xo'jaliklarida chorva mollari va parrandalar bosh soni (bosh)*

№	Chorva mollari va parrandalar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	O'zgarishi, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan	
					Miqdoriy +/-	Nisbiy %
1	Yirik shoxli qoramollar	3010	3980	5100	2090	169,4
	Shu jumladan sigirlar	2575	2790	3194	619	124,0
2	Qo'y va echkilar	2260	2650	3921	1661	173,5
3	Otlar	39	43	60	21	153,8
4	Parrandalar	29372	29870	37512	8140	127,7
	Shu jumladan tuxum qiladiganlari	1980	2887	19000	17020	9,6 m
5	Asalari oilalari, dona	90	98	80	-10	89,0

Manba: Tayloq tuman statistika bo'limi ma'lumotlari asosida 2011-2013 yillar

4.1.1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tuman fermer xo'jaliklarida Chorva mollari va parrandalar bosh soni ko'payib bormoqda. Yirik shoxli qoramollar 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 2090 boshga yoki 69,4 % ga, qo'y va echkilar 1661 boshga yoki 73,5 % ga, otlar 21 boshga yoki 53,8 % ga, parrandalar esa 8140 boshga yoki 27,7 % ga oshgan. Faqatgina tumanda asalari oilalari 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 10 donaga yoki 11 % ga kamaygan. Shuningdek ushbu ko'rsatkichlar 2013 yilda 2011 yilga nisbatan ham ortib borgan.

Jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, 2013 yilda 2011 yilga nisbatan parrandalarning tuxum qiladiganlari keskin oshgan bo'lib, bu 9,6 martani tashkil

qiladi. Shuningdek, sigirlar 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 619 boshga yoki 24,0 foizga oshgan. Fermer xo'jaliklarida chorva mollari va parrandalar bosh sonini oshirish bilan birgalikda ular mahsuldorligini, ulardan olinadigan mahsulotlarni iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Yuqorida biz tuman fermer xo'jaliklarida mavjud chorva mollari va parrandalar bosh sonini tahlil qilib ko'rib chiqdik. Tumanda chorcachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holati esa, quyidagi jadvalda keltirilgan. (4.1.2-jadval)

4.1.2-jadval

Tayloq tuman fermer xo'jaliklarida ayrim chorcachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holati*

№	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	O'zgarishi, 2013 yil 2011 yilga nisbatan	
						Miqdoriy +,-	Nisbiy %
1	Go'sht	Tirik vaznda, tonna	21	22	60	39	3 martaga oshgan
2	Sut	tonna	1870	1980	3442	1572	184,1
3	Tuxum	ming dona	312	814	3100	2788	10 martaga oshgan

*Manba: Tayloq tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ma'lumotlari asosida 2011-2013 yillar.

4.1.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tuman fermer xo'jaliklarida chorva mollari bosh soni ortgani holda, ulardan olinadigan mahsulot miqdori ham ko'paygan. 2013 yilda go'sht ishlab chiqarish 2013 yilga nisbatan 39 tonnaga yoki 3 martaga, sut ishlab chiqarish 1572 tonnaga yoki 84,1 % ga, tuxum 2788 ming donaga yoki 10 martaga, jun 201 sentnyerga yoki 7 martaga oshgan. Ushbu

ko'rsatkichlar 2011 yilga nisbatan taqqoslanganda ham ko'paygan. Lekin, tumanda qorako'l teri ishlab chiqarishni tashkil yetish lozim.

Yuqoridagi raqamlardan aytish mumkinki, tumanda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holati ijobiy bo'lib, uni yanada oshirish imkoniyati mavjud, buning uchun ular mahsuldorligini oshirish hamda mazkur tarmoqqa ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini ko'paytirish lozim.

Chorvachilik tarmog'ining hamda chorva mahsulotlari ishlab chiqarishning holatini o'rganish uchun uning iqtisodiy samaradorligini o'rganish, ya'ni iqtisodiy ko'rsatkichlarni, moliyaviy natijalarni tahlil qilish va shu asosda tarmoq faoliyatiga baho berish lozim. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi holatini quyidagi jadval asosida tahlil qilish mumkin. (4.1.3-jadval)

4.1.3-jadval

Tayloq tuman fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi*

№	Ko'rsatkichlar nomi	2012 yil	2013 yil	O'zgarishi, 2013 yil 2012 yilga nisbatan	
				Miqdoriy +,-	Nisbiy %
1. Chorvachilik mahsulotlarning tannarxi (mln.so'm)					
1	Go'sht	58,2	204,7	146,5	3,5 m
2	Sut	58,3	280,5	222,2	4,8 m
3	Tuxum	68,1	257,3	189,2	3,8 m
4	Jami chorvachilik mahsulotlari tannarxi (mln.so'm)	728,0	919,9	251,9	126,4
2. Chorvachilik mahsulotlaridan olingan daromad (mln.so'm)					
1	Go'sht	99,7	404,5	304,8	4,1 m
2	Sut	89,1	534,4	445,3	8,2 m

3	Tuxum	134,2	604,5	470,3	4,5 m
4	Jami chorvachilik mahsulotlaridan olingan daromad	942,4	1755,3	812,9	186,3
3. Chorvachilik mahsulotlaridan olingan yalpi foyda (mln.so'm)					
1	Go'sht	41,5	199,8	158,3	4,8 m
2	Sut	30,8	253,9	223,1	8,2 m
3	Tuxum	66,1	347,2	281,1	5,3 m
4	Jami chorvachilik mahsulotlaridan olingan foyda	214,4	835,4	621	3,9 m
4. Chorvachilik mahsulotlarining rentabellik darajasi (%)					
1	Go'sht	71,3	98,0	26,7 punktga oshgan	
2	Sut	52,8	90,5	37,7 punktga oshgan	
3	Tuxum	97,1	135,0	37,9 punktga oshgan	
4	Jami chorvachilik mahsulotlarining rentabellik darajasi	29,5	90,8	61,3 punktga oshgan	

Manba: Tayloq tuman statistika bo'limi ma'lumotlari asosida 2012-2013 yillar

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ijobiy holatda va bazis davrga nisbatan ancha oshgan. Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2013 yilda ayrim chorvachilik mahsulotlaridan olingan foyda miqdori ancha o'sgan bo'lib, chunonchi, go'sht mahsulotidan olingan yalpi foyda 2012 yilga nisbatan 4,8 barobarga yoki 158,3 mln. so'mga, sutdan olingan foyda miqdori 8,2 barobarga yoki 223,1 mln. so'mga, tuxumdan olingan foyda miqdori 5,3 barobarga yoki 281,1 mln.so'mga hamda jami chorvachilik mahsulotlaridan olingan yalpi foyda miqdori 3,9 barobarga yoki 621 mln. so'mga o'sgan. Foyda miqdorining ko'payishi o'z navbatida mahsulot rentabelligi darajasini oshishiga olib kelgan.

Jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, go'sht, sut, tuxum va jami chorvachilik mahsulotlarining rentabellik darajasi mos ravishda 2013 yilda 98 %, 90,5 %, 135 %, 90,8 % ni tashkil qilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan taqqoslaganda go'sht 26,7 punktga, sut 37,7 punktga, tuxum 37,9 punktga, jami chorvachilik mahsulotlari esa 61,3 punktga oshgan.

Barcha korxonalarda hal qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkich rentabellik darajasi ko'rsatkichi hisoblanadi va ushbu ko'rsatkich orqali korxonada faoliyatiga umumiy baho beriladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu ko'rsatkichni oshirish imkoniyatlarini oshirish korxonada barqaror rivojlanishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Rentabellik darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri korxonalarda xususan fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi. Shu sababli, ushbu ko'rsatkichni o'rganib tahlil qilish, uni oshirish imkoniyatlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

4.2 Chorvachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari

Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishdagi tadbirlar yetishtiriladigan mahsulot birligiga sarflanadigan mehnat va boshqa harajatlarni kamaytirishga qaratiladi. Bunda birinchi navbatda ishchi-xodimlarga mehnatga haq to'lash hajmlarini me'yor darajasida belgilash, mahsulot birligiga sarflanadigan miqdorni kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish hamda sotishdan olinadigan foydalilik darajasini (rentabellik) oshirish imkoniyatlari izlanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini ko'paytirish asosida unga sarflanadigan harajatlarni turlari bo'yicha kamaytirish eng avvalo mehnatni ilmiy asosda tashkil yetish tamoyillarini amaliyotga joriy qilish, bunda barcha tadbirlarda resurslarni tejankor qo'llash samarali hisoblanadi.

Chorvadorlar uchun ish faoliyatida mehnat sharoitlarini yaratish, mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni va vaqt miqdorini kamaytirishda muayyan texnik-iqtisodiy va ijtimoiy vazifalar amalga oshiriladi. Jumladan, chorvachilik

fermer xo'jaliklari yoki naslchilik xo'jaliklarida yil boshida albatta biznes-reja ishlab chiqilishi zarur va bunda eng avvalo – mahsulotlarni turlari bo'yicha ishlab chiqarish miqdorini rejalashtirish, sarf-harajatlarni me'yorlar darajasida sarflanishi ustidan doimiy nazorat va monitoring olib borish, bozordagi narx-navolar, marketing tadqiqotlari, yil natijasi bo'yicha olinadigan daromad va harajatlar, shuningdek, ishchilarning malakasi, qobiliyati, mehnat tajribasi va boshqa ijobiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishga joylashtirish, ilg'or tajribalar va ilm-fan yutuqlarini joriy qilishni amalga oshirish barobarida ular malakasini doimiy oshirish, qo'l kuchi yordamida bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalashtirish hisobiga mehnatni engillashtirish, ishlab chiqarish va dam olish hududlarida sanitariya-gigiena talablariga rioya qilish pirovard natijada ishchi-chorvadorlar salomatligini saqlash, mehnat xavfsizligini ta'minlash va hokazolar e'tiborga olinadi.

Mahsulotlar tannarxi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda sutchilik fermasida mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan pul-moddiy Harajatlarning puldagi ifodasi, asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi, shuningdek, har bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va yil yakuni bo'yicha xo'jalik faoliyatining natijalari o'z aksini topadi.

Mahsulotlar tannarxi turli omillarga bog'liq bo'lib, ular quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq ishchi-xodimlarga (sog'uvchi, molboqar, traktorchi va boshqalar) sarflangan ish haqi (yagona ijtimoiy ajratmasi bilan birgalikda);
- sarflanadigan barcha turdagi ozuqalar miqdori va narxi;
- boshqa turli to'g'ri (amortizatsiya ajratmasi, asosiy ishlab chiqarish ob'ektlarini joriy ta'mirlash, yoqilg'i, elektr enyergiya, transport xizmati, suv ta'minoti, sun'iy urug'lantirish, zooveterinariya xizmatlari va boshqalar) dan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq harajatlar, jumladan boshqaruv apparatining ish haqi, umumiy ishlab chiqarish va umumxo'jalik harajatlari davriy

harajatlar hisoblanib, bu harajatlar fermalarning daromadi hisobidan qoplanishi ko'zda tutilgan.

Chorvachilik fermalarida 1 sentner sut ishlab chiqarish tannarxida quyidagi harajatlar maqbul tarkib hisoblanadi:

- ish haqi (yagona ijtimoiy ajratma bilan birgalikda) – 30-32 foiz;
- oзуqalarga sarflangan harajatlar – 44-46 foiz;
- turli to'g'ri harajatlar – 14-15 foiz;
- ko'zda tutilmagan qo'shimcha harajatlar – 10-12 foiz.

Chorvachilikda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish natijasida harajatlar tarkibida ish haqi salmog'i 15-20 foizgacha kamayishi, oзуqalarni tashish va tarqatish harajatlari esa 50 foizgacha oshishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotini shakllanishi davrida chorvachilik mahsulotlarining tannarxini pasaytirishga erishish eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bozorlarda va savdo shoxobchalarida sut va go'sht mahsulotlarini ko'proq harid qilish hamda bu oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan harajatlarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi. Hozirda turli dag'al, shirali va ayniqsa konsentrat oзуqalarning bozor bahosini keskin oshishi natijasida 1 kg sutning chakana (harid) narxini 1200-1500 so'mga, 1 kg go'shtning narxini esa 12-17 ming so'mgacha ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda.

Barcha hududlarda go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish hisobiga mahsulotlarni arzonlashtirishga qaratilgan ichki zahiralarni ishga solish darkor.

5. EKOLOGIK MUAMMOLAR, HAYOT FAOLIYATI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI MASALALARI

Insoniyat tarixidan va ijtimoiy hayotidan shu narsa aniqki, har qanday tarixiy davr va har qanday asr dunyo hamjamiyati oldida o'ziga xos, ilgarigilaridan farq qiladigan muhim va dolzarb muammo va masalalarning ko'ndalang qilib qo'yadi. Bizning hayotimizga kirib kelgan XXI asrning eng muhim muammolaridan biri bu ekologik muammo xisoblanadi. Ushbu muammoning xavfli oqibatlari to'g'risida olimlar deyarli bir asrdan buyon jar solib insonlarni, dunyo hamjamiyatini ogoh qilib kelgan. Shunga qaramasdan ushbu muammo bugungi kunga kelib, o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, ko'pgina xududlarda ekologik xolat salbiy tomonga o'zgaragan, natijada iqlim sharoiti o'zgaruvchan bo'lgan, ko'pgina mamlakat va xududlarda suv zahirasi kamaygan, atmosfera ifloslangan, cho'llanish, tuproq eroziyasi, yaylovlarning o't-o'lanlarini siyraklashishi, hayvonot va o'simliklar dunyosining kambag'allashib ko'pgina tur va populatsiyalarning yo'qolishi tuproqning sho'rlanishi, yer osti zax suvlarining tuproq yuzasiga ko'tarilishi, qum ko'chish, suv manbalarida uning miqdorini kamayishi, har xil tabiiy ofatlar 2000 - 2011 yillarda Indoneziya va Yaponiyadagi yer zilzilasi, atom energetik stansiyalarining portlashi, ishdan chiqishi kabi salbiy holatlar aynan ekologik holatning talab darajasida emasligida nomoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida orol suvining kamayishi natijasida tuzning ko'payishi va uni shamol orqali Mamlakatning shimoliy xududlarida tarqalib yer unimdorligiga salbiy ta'sir qilishi, Surxondaryo viloyatining janubiy xududlarida "Afg'on shamoli" deb nom olgan issiq, qum yog'diradigan to'polonli shamollarning yildan – yilga ko'payib borishi va bir necha kungacha davom etishi, viloyatning shimoliy tumanlarida Tojikiston alyumin zavodining zaharli chiqindilaridan aholi, hayvonlar va o'simliklar dunyosining aziyat chekishi, atrof muhitning ifloslanishi aholi yashaydigan xudud, tuman va ayniqsa shaharlarda tabiiy xoldagi ichimlik suvlarining ifloslanishi va iste'molga yaroqsizligi, ko'cha –

kuylarni chiqindi va axlatlar bilan sanitariya xolatini o'zgarishi va boshqalar ekalogik xolatning buzilganligidan dalolat beradi. Bu xolatni to'g'irlash va uni yaxshilash uchun:

- aholining, ayniqsa maktab o'quvchilari, o'rta maxsus, kasb – hunar va oliy o'quv yurtlari talabalarini ekalogik sovodxonligini oshirish. Buning uchun ekalogiya fanini o'qitish samaradorligini ta'minlash, tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borish;

- suv manbalaridan unimli foydalanish, qurib borayotgan orolni “tiriltirish” chora – tadbirlarini ko'rish. Orol bilan bog'liq bo'lgan ekalogik muammolarni oldini olish;

- tabiatda yo'qolib borayotgan xayvon va o'simlik turlari va populatsiyalarni saqlab qolish, ularni ko'paytirish, chora tadbirlarini ko'rish. Buning uchun maxsus o'simlik va hayvonot bog'larini, qo'riqxonalarini tashkil etish, mavjud bo'lgan “Qizil kitob” dan maqsadli foydalanish, yo'qolib borayotgan hayvon va o'simliklarni genofondini sof xolda saqlab qolish, imkon darajasida uni boyitish;

- har bir korxonada, muassasa, qishloq xo'jalik korxonasi va ta'lim muassasalarida ekalogik holatni yaxshilash borasida maxsus tadbirlar tashkil qilish, har bir shaxsni o'zi yashab turgan xududda ekalogiya uchun ma'sul ekanligini uqtirish va talab qilish;

- suv manbalari, yaylovlar, o'rmonlar va boshqa insonlar foydalanadigan joylarni ekalogik xolatini doimiy nazorat qilib turish. Bunda Xorazm, Qoraqalpog'iston, Surxandaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlariga alohida e'tibor qaratish;

- respublikamiz xududida yashaydigan odamlar, urchitilayotgan xayvonlar, baliqlar va asalarilar, ko'paytirilayotgan o'simliklar populatsiyalari orasida uchraydigan ekalogiya bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni, mayib – majruxliklarni (odam va hayvon) oldini olish chora takdbirlarini tuzish;

- aholi iste'moliga chiqarilayotgan chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini doimiy ravishda veterinariya – sanitariya nazoratidan o'tkazish. Bulardan tashqari chetdan sotib olinayotgan qoramol, urug', embrion, xujayra,

garmon, har xil biologik faol moddalar, dori – darmonlar, vaksina va boshqalarni amaldagi tartibga binoan sanitariya nazoratidan o'tkazish hamda xalqaro me'yoriy huquqiy xujjatlarga ko'rsatilgan me'yorlarga rioya qilish;

- tashkilotlarda, fermer xo'jaliklarida va mahallalarda ekalogiya burchagini tashkil qilish va uni bajarilishini ta'minlash uchun ma'sul tayinlash.

Har bir tashkilotning, o'quv muassasasining, Shu jumladan fermer xo'jaliklarining raxbarlari, o'z joylarida mehnat faoliyati va texnika xavfsizligi masalalariga ham e'tibor qaratishlari lozim. Buning uchun:

- ishga qabul qilinayotganda albatta, keyinchalik, davriy, favqulotda, rejali va doimiy ravishda yo'l- yo'riq o'tkazib, uni maxsus jurnalda qayd qilib qo'yish lozim;

- xo'jalikda mavjud bo'lgan uskuna, mexanizim, texnologik jarayon, sex, avtoullov, traktor va chorvachilikka oid bo'lgan uskunalar bilan ishchi xodimlarni tanishtirib borish lozim;

- Chorvachilik binolari va chorvachilik inshootlarida o'rnatilayotgan mexanizim, avtomatlashtirilgan jarayon va qurilma hamda elektr energiyalardan foydalanishni bilish shart;

- korxonada va fermer xo'jaligida xayot faoliyati va texnika xavfsizligi masalalariga ma'sul kishilarni, ular bilan tanishtirish va barcha ishchi xodimlarni shaxsiy ximoyalaniish vositalari (SHHV) bilan ta'minlash;

- sigirlarni mashinada sog'ish, avtomatlashtirilgan xolda oziqa tarqatish va jun qirqimi kabi mavsumiy ishlarni talofatsiz o'tkazish uchun texnika xavfsizligiga rioya qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz xodisa ro'y berganda, ishchilar shikastlanganda, yoki kasb kasalligiga chalinganda amaldagi tartibga binoan faoliyatni amalga oshirish, yuqori tashkilot va kasaba uyushmalarga xabar berish;

- xo'jalik va korxonadan har bir ishlab chiqarish yili boshida xayot faoliyati va texnika xavfsizligi masalalariga mablag' ajratishga va uni maqsadli sarflashga erishish, o'z vaqtida xisobot tayyorlash.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Chorvachilikni rivojlantirishga doir huquqiy, ilmiy, uslubiy, me'yoriy va statistik ma'lumotlarni taxlil qilib, Tayloq tumanidagi chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida tajriba o'tkazib, o'z shaxsiy fikr–muloxazalarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

1. Bugungi kunda Mamalakatimiz viloyatlarida 67 mingga yaqin fermer xo'jaliklari mavjud, shundan 6,0 mingga yaqini chorvachilikka ixtisoslashgan ekan Tayloq tumanida jami 714 ta fermer xo'jaliklari bo'lib, shundan 560 ta meva sabzavotchilikka, 99 ta bog` va uzumchilikka, 18ta issiqxonaga ixtisoslashgan, 14 tasi chorvachilikka, 2 tasi parrandachilikka, 9 tasi baliqchilikka, 12 tasi asalarichilikka ixtisoslashgan.

2. Ozuqabop ekinlar yetishtirish talab darajasida emas. Jami sug'oriladigan 21784 gektar yerning faqatgina 415 gektariga yoki 1,9 foizigagina ozuqabop ekinlar ekilishi, bundan tashqari tumandagi jami 433 ta fermer xo'jaligining faqat 2 tasi yoki 0,5 foizi oziqa yetishtirishga ixtisoslashganligini o'zi bunga misol bo'la oladi.

3. Tumandagi "Chorvador Uroqov" fermer xo'jaligida qoramol go'shti ishlab chiqarish uchun oziqa bazasi va asrash sharoiti talab darajasida.

4. Qora-ola zotiga mansub bo'lgan va yakuniy so'qimlanish davomida binoda bog'lab boqilgan tajriba guruhidagi buqachalar, jadal o'sishgan. Ular o'z tengqurlari nazorat guruhiga nisbatan bo'rdoqilash davomida 25,3 kg yoki 7,0 % yuqori ko'rsatkichga erishgan.

5. Iste'mol qilgan oziqasini mahsulot birligi bilan qoplash xususiyati bo'yicha ham guruhlarga ajratilgan. Xususan 1 kg qo'shimcha tirik vazn uchun tajribada 0,46 nazorat guruhiga kelganda oziqa birligi yoki 1,3 % oziqa sarflagan.

6. So'yim ko'rsatkichlari bo'yicha ham tajriba guruhi ijobiy ko'rsatkichga erishgan va nimalangan go'sht va so'yim og'irligi bo'yicha nazorat guruhini tegishlicha: 17,7 kg (7,6 %) va 18,0 (7,3 %) ga ortda qoldirgan.

7. Go'shtning sifat ko'rsatkilari bo'yicha ham ishonarli darajada guruhlar aro farq kuzatilgan.

8. Yakuniy so'qimlanish binoda bog'lab o'tkazilgan tajriba guruhining iqtisodiy samaradorligi yaxshi bo'lgan va olingan sof foyda ularda tenqurlariga nisbatan 177,7 ming so'm yoki 27,0 % ko'pdir.

Pastdarg'om tumani misolida chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini faoliyatiga oid ma'lumotlar taxliliga binoan qilingan xulosalar asosida ishlab chiqarishga quyidagi amaliy takliflarni qilamiz.

1. Qoramol go'shti ishlab chiqarishda ko'paytirishga va uni sifatini yaxshilashga ta'sir qiladigan qo'shimcha imkoniyatlardan samarali foydalanishni, ya'ni yakuniy so'qimlash davomida buqachalarni binoda bog'lab boqishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Veterinariya to'g'risida" Toshkent 3.09.1993.
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Naslchilik to'g'risida" Toshkent 21.12.1995.
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Fermer xo'jaligi to'g'risida" Toshkent.30.04. 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi 2000. 25 may.
5. Respublika Prezidentining 2000 yil 4 martdagi "Fermerlarni xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa sub'ektlarini qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari to'g'risida" gi PK- 75 sonli qarori.
6. Respublika Prezidentining "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi PK 383 sonli qarori.
7. Respublika Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida, isloxlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida" gi 3226 sonli farmoni.
8. Respublika Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi " 2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" gi 3342 sonli farmoni.
9. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida» gi O'zR Prezidentining PK 308 – sonli qarori. Toshkent. 2006 yil 23 mart.
10. «Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi ko'shimcha chora -

- tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PK-842 - sonli qarori. Toshkent. -2008 yil 21 aprel.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. Toshkent. “O'zbekiston”. 2008.
 12. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy - iqtisodiy inqrozi. O'zbekiston sharoitida, uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. «O'zbekiston». 2009.
 13. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz tarraqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston respublikasi Vazirlar maxkamasining majlisdagi ma'ruza. 2012 yil 19 yanvar Toshkent “O'zbekiston”.
 14. Juraev F.J. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Toshkent. 2004.
 15. Ibragimov Yu. Zamon bilan hamnafaslik davr talabi. “Zooveterinariya” jurnali. 2010. № 7. 12 – 14 b.
 16. Ibragimov Yu., Xafizov I. Chorvachilikni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar (dehqon, fermer xo'jaliklari raxbarlari va mutaxassislari uchun). Toshkent. 2011. 24 b.
 17. Ismoilov A.Q., Murtazaev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Toshkent, ”Moliya” 2005. 403 b.
 18. Kaharov A., Xushvaqtov A. Isloxatlar davrida chorvachilik taraqqiyoti. “Zootexniya” jurnali. 2009. № 10. 41 – 42 b.
 19. Kaharov A. va boshqalar Qoramol go'shti ishlab chiqarishni ko'paytirish bugungi kun talabi. Respublika ilmiy – amaliy konfyerensiya matyeriallari. Samarqand 2010. 112- 114 b.
 20. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatining taxlili. Samarqand. 2002.
 21. Maksudov I. Amirov Sh. Fermer xo'jaligida syermahsul sigirlar o'stirish. «Zooveterinariya» jurnali. 2008. № 4. 38-39 b.

14. Nosirov U.N., Usmonov O., Mirhamidov M. «Fermer bo'laman». Toshkent. «Mexnat» 2003. 95 b.
15. Nosirov U. Mamalakatimizda qoramolchilikni rivojlantirishning asosiy tamoyillari. "Zooveterinariya" jurnali. 2008. № 2. 34 – 35 b.
16. Nosirov U. Fermer xo'jaligida dehqonchilik va Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish omillari. . "Zooveterinariya" jurnali. 2008. № 11. 31- 33 b.
17. Nosirov U.N. va boshqalar Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish. "Zooveterinariya" jurnali. 2009. № 8. 33 – 35 b.
18. Nosirov U.N., Maksudov I.M., Atabaeva X. Chorvachilik fermer xo'jaliklarida mollarning mahsuldorlik, genetik potensialidan foydalanishda ozuqa bazasini mustahkamlash muammolari. "Zooveterinariya" jurnali. 2009. № 11. 36 – 37 b.
19. Nosirov U.N., Maksudov I.M.- Qoramollarni bir xil oziqlantirish tipiga o'tkazish va mahsuldorlikni oshirishning ilmiy – amaliy asoslari. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № 1. 29 – 34 b.
20. Norqobilov B. Istiqlol in'omi. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uyushmasi. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № 9. 5 – 7 b.
21. Norqobilov B, Abduraimov D., Ibragimov Yu. Sigir va tanalarni sun'iy urug'lantirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent. 2011. 40 b.
22. Olimov M., Xushmatov N. Iqtisodiy samaradorlik omillari. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. 2007. № 5 41 b.
23. Muxtorov A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Qarshi. 1997.
24. Teshaboev X. O'zbekistonda Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikning rivojlanishi va istiqboli. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № 6. 2 – 6 b.
25. Teshaboev X. Fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab – quvvatlash-iqtisodiy barqaror jamiyat shakillantirish asosi. "Zooveterinariya" jurnali. 2011. № 7. 6-7 b.
26. Teshaboev X. Qishloq xo'jaligini yuksaltirish aholi farovonligi sari tashlangan dadil qadamdir. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № 1. 2-4 b.

27. Tuxliev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. Toshkent. 2008. "O'z MT".108 b.
28. Umarova E. Fermer xo'jaliklarida sog'lom buzoq olish uchun sigir va g'ujonlarni tug'riqqa tayyorlash. "Zooveterinariya" jurnali.2010.№ 5.18-22 b.
29. Fermerskoe xozyaystvom zarubejom. "Bit fermerom" 13- 11. 2009. Sayt [www/chumfci. Com ck/ eknomika](http://www/chumfci.com/ck/eknomika).
30. Fermerlik faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslari. 2010.
31. Xolmurodov E. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning huquqiy asoslari. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № 8. 4-5 b.
32. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalarida ozuqa bazasini mustahkamlash va mollarni ozuqalar bilan ta'minlash chora tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma. "Zooveterinariya" jurnali. 2008. № 6-7. 5-10 b.
33. Sharipov O. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni takomillashtirishning xuqukiy omillari. "Zooveterinariya" jurnali. 2010. № . 5-6 b.